

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

"XALQ IJODIYOTI" FAKULTETI

"IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT" TA'LIM YO'NALISHI

**"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH" KAFEDRASI**

**"MADANIY MEROISNI O'ZLASHTIRISHDA MADANIYAT
MUASSASALARINING ROLI"**

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o'tdi”

“Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” kafedrasining ____ -
sonli yig'ilish bayonnomasi

“____” 2014 yil

Kafedra mudiri _____

X.Shodiev

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat”
ta'lif yo'naliishi IV kurs bitiruvchisi

Meldebekova Dilyara Tulkunovna

Ilmiy raxbar: Sotsiologiya fanlari
doktori, professor M.Bekmurodov

M U N D A R I J A

1.BOB Madaniy merosning ilmiy nazariy asoslari

- 1.1. “Madaniy meros” tushunchasi va mohiyati.....
- 1.2. Madaniy merosni saqlash, asrab avaylash va targ‘ib qilish muammolari.....

II BOB Madaniy merosni o‘zlashtirishda madaniyat muassasalarining roli

- 2.1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda madaniy merosni tiklash va rivojlantirishga doir islohotlarning amalga oshirilishi.....
- 2.2. Madaniy-ma’rifiy muassasalar orqali madaniy merosni o‘zlashtirish imkoniyatlari.....

Xulosa.....

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Xalqimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, mamlakat o‘tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma’naviy qadriyatlar va an’analarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Davlatimiz rahbarining «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» kitobida ta’riflanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymone - tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch - ma’naviyatga eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tibor qaratildi. Mustabid tuzum davrida millatimiz va xalqimizni kamsituvchi buzib ko‘rsatilgan tarixiy haqiqatlar tiklandi. Milliy bayramlar va urf-odatlar asl holiga qaytdi. Aziz avliyolarimizning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo‘q bo‘lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta’mirlandi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi milliy madaniyatimiz tarixini o‘rganish, u haqda xolisona fikr bildirish borasida katta imkoniyatlar yaratdi. Osoriatiqalarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni to‘laqonli yoritish imkoniyati tug‘ildi.

Jahon madaniyatiga o‘zining munosib hissasini qo‘sghan ajdodlarimiz tavalludlarini nishonlash mustaqillik tufayli izchil an’anaga aylandi. Istiqlol sharofati bilan hamda Prezidentimizning tashabbuslari bilan allomalarimiz tavallud sanalari nishonlandi. Jumladan, 1991 yili Alisher Navoiy; 1993 yili Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahovuddin Naqshband; 1994 yili Mirzo Ulug‘bek; 1995 yili Feruz, Najmiddin Kubro; 1996 yili Amir Temur; 1998 yili Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg‘oniy; 1999 yili Jaloliddin Manguberdi; 2000 yili Burhonuddin al-Marg‘inoniy, Kamoliddin Behzod, Imom Abu Mansur al-Moturudiy kabi mutafakkirlarimizga bag‘ishlangan tantanalar o‘tkazildi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ana shunday islohotlar olib borilayotgan bir vaqtida ushbu mavzuni ilmiy tadqiq etish dolzarbdir.

Tadqiqotning o`rganilganlik darajasi.

Tadqiqotda madaniy merosni o`zlashtirish muammosi bo`yicha o`zbekistonlik olimlar M.Bekmurodov, A.Umarov, H.Shodiev, U.Qoraboev, B.Sayfullaev, R.Irgashev, M.Yuldasheva, xorijlik olimlardan D.Genkinlarning ilmiy to`plamlari mavjud.

Ammo madaniyat muassasalari orqali madaniy merosni yoshlar, xususan 10-15 yoshdagি bolalar tomonidan o`zlashtirish muammosi maxsus tadqiq etilmay kelinmoqda. Biz mazkur bitiruv malakaviy ishda ana shu muammoni ilmiy-amaliy o`rganishga harakat qildik.

Tadqiqot obekti. Bitiruv malakaviy ishning asosiy obekti madaniyat muassasalari orqali madaniy merosni o`zlashtirish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqot predmeti. madaniyat muassasalari orqali madaniy merosni o`zlashtirish imkoniyatlarini tahlil etish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi o`rtasida targ`ibot va tashviqot ishlari bilan bevosita shug`ullanadigan O`zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida 894 madaniyat va aholi dam olish markazlari, 87 ta muzey, jumladan 18 ta tarixiy, 25 ta o`lkashunoslik, 10 ta badiiy, 16 ta memorial va 18 ta boshqa yo`nalishdagи muzeylar va 60 dan ortiq madaniyat va istirohat bog`lari hamda 37 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Madaniyat va ma`rifat maskanlari jamiyatda o`ziga xos o`rin tutadi, ayniqsa, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarni aholi o`rtasida tushuntirishda muhim omil bo`lib xizmat qilmoqda. Shu bois bitiruv malakaviy ishida bugungi kunda madaniy merosni o`zlashtirishda ushbu madaniy-ma`rifiy muassasalarning o`rni va rolini ochib berish bosh maqsad etib belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Madaniy meros tushunchasi va o‘rganilishi yoritiladi;
- asrlar davomida shakllangan xalqimiz madaniy merosining taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish;
- madaniy merosni madaniyat muassasalari orqali o‘zlashirish imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar beriladi.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy va uslubiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizda madaniy islohotlar borasidagi hamda Vazirlar Mahkamasining ushbu sohani yuksaltirish bo‘yicha ishlab chiqqan ko‘rsatma va qarorlariga tayanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I.BOB Madaniy merosning ilmiy nazariy asoslari

1.1. “Madaniy meros” tushunchasi va mohiyati

Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ahloqiy, ilmiy, tafakkur, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma’naviy boyliklar majmui hisoblanadi.

Har bir davr va avlod o‘ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo‘lsa, davr va avlodlar ham shunday.

Madaniy meros keng xalq ommasi va ayrim ijodkorlar merosi tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, xalq madaniyati va ijodiga oid boyliklar asrlar davomida yig‘ilib, har bir avlod tomonidan qayta ishlanib, to‘ldirilib, ommaviy ko‘rinishda yashab keladi. Madaniy meros muallifi xalq ommasidir. Farobiy, Xorazmiy, Beruniy kabi allomalar qoldirgan ijtimoiy, ilmiy tafakkuriy meros esa ularning iqtidori va mehnati mahsulidir.

Madaniyat va madaniy meros keng qamrovli ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun unga rang-baranglik, hurfikrlilik, o‘ziga yarasha demokratizm xos. Xuddi shu nuqtai nazardan madaniy merosga munosabat jamiyat qanday tamoyillarni o‘ziga shior qilib olganini ham ifoda etadi. Biroq madaniy merosga munosabat hali kamlik qiladi, hamma gap bu boyliklardan ijtimoiy taraqqiyot uchun foydalanish imkoniyatlarini yaratishdadir.

Ijtimoiy madaniy taraqqiyot tadrijiylik qonuniga muvofiq sodir bo‘ladi. Hech bir davr madaniy merosi butinicha, taqlid tarzida boshqa davrga ko‘chmaydi, uni har bir avlod o‘z hayot tajribasi bilan boyitadi yoki yangilaydi.

Ammo, xalq ruhi, madaniyati va turmush tarzida shunday tarixiy-madaniy o‘zaklar borki, ularni, hatto, zo‘ravonlik, ijtimoiy to‘ntarishlar ham yo‘q qilolmaydi. Masalan, o‘lkamiz xalqlariga islom diniga ishonish, oilaga sadoqat,

keksalarni hurmat qilish kabilar shular jumlasidandir. Demak, madaniy merosga uzoq asrlarga borib taqaladigan tarixiy-madaniy o‘zak va ijtimoiy hayot talablariga muvofiq doim boyib yoki yangilanib boradigan ustki qatlamlar mavjud. Xuddi shuningdek, madaniy merosda o‘z davri uchungina foydali, qolgan davrlar talablariga to‘g‘ri kelmaydigan tomonlar ham mavjud bo‘ladi, hatto ular yangilikka hov ham bo‘lishi mumkin. Aslida, eskilik bilan yangilik, turg‘unlik bilan rivojlanish o‘rtasidagi ochiq yoki yashirin ziddiyat ijtimoiy taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Ziddiyatni inkor etish taraqqiyotni ham inkor etishdir. Bu ziddiyatni batamom bartaraf etish mumkin emas, ammo uni ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga yo‘naltirish mumkin.

Sho‘ro hokimiyat madaniy merosga bir tomonlama yondoshdi, sinfiy va partiyaviy nuqtai nazardan qarab, madaniy merosning minglab durdonalari to‘g‘risida so‘zlashni taqiqladi, yuzlab madaniy meros namoyondalarini millatchilikda, milliy biqiqlikda, cheklanganlikda ayblab ularni qatog‘on qildi.

Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqi o‘z madaniy merosini yangidan tiklamoqda. Madaniy merosimiz al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband kabi mutafakkirlar ta’limotlari, yaqin vaqtlargacha taqiqda bo‘lgan talaygina urf-odatlar, rasm-rusmlar, an’analar, milliy yig‘inlarning tiklanishi hisobiga boyib bormoqda, tariximizning har bir pallasi boshqatdan ko‘rib chiqilmoqda, jadidchilik xarakatining asl ma’nosini ochib berilmoqda. Muqimiy, Furqat va boshqa shoirlar ijodi qayta ko‘rilib, to‘la ravishda yoritilmoqda, Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarning fikrlari olami xalqimizga asliga ko‘ra yetkazilmoqda.

O‘zbek xalqi Markaziy Osiyoda eng boy va qadimiy madaniy merosga ega xalq, chunki uning ajdodlari uch ming yil davomida mintaqaning eng qulay, serhosil, serquyosh va sersuv qismini insoniyat moddiy va ma’naviy madaniyatning ulkan maskanlaridan biriga aylantirganlar, bizga meros sifatida o‘nlab madaniyat va ma’naviyat markazlari, minglab falsafiy, adabiy, dunyoviy

va ilmiy asarlar qoldirganlar. Bu boyliklarni yuzaga chiqarish, insoniyat oldida o‘zbek xalqining haqiqiy madaniy va ma’naviy qiyofasini ko‘rsatish madaniy merosimizni tiklashning tarkibiy qismidir, O‘zbekistonni olamga tanitishning zaruriy shartidir¹.

1.2. Madaniy merosni saqlash, asrab avaylash va targ‘ib qilish muammolari

Madaniy qadriyatlarni o‘rganishdan asosiy maqsad, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho madaniy merosni asrash va taraqqiy ettirishdan iboratdir. Madaniy merosni tiklash va taraqqiy ettirish tendensiyalari tarkibida uch bosh yo‘nalish mavjud.

Birinchi yo‘nalish – odamlar istiqomat qilayotgan joylarda, oilalarda bebaho qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish;

Ikkinci yo‘nalish – davlat madaniyat muassasalari – klub, madaniyat uyi, kutubxona, muzey, madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniy markazlarda ma’naviy merosni tiklash va taraqqiy ettirish;

Uchinchi yo‘nalish esa xalq madaniyati an’analarini yuqori pog‘onalarda – tuman, viloyat, respublika va xalqaro miqyosda targ‘ibot qilish yo‘llarini takomillashtirish.

Bu yo‘nalishlarning har biri o‘z navbatida uch asosiy shoxobchaga bo‘linadi. Ularning zaminida umumiy ijtimoiy-madaniy uslubiyat ishlab chiqiladi. U to‘rt pog‘onali jarayondan tashkil topadi.

An’anaviy xalq madaniyatini saqlash, tiklash va kamol toptirish uchun quyidagi pog‘onalarda ish olib borish mumkin:

- 1. Xalq madaniyati durdonalarini tarixiy-ma’naviy meros sifatida, asl holida, an’anaviy shaklda asrash;**
- 2. Zamonaviy (jumladan, boshqa xalqlardan o‘tgan) madaniy shakllarni an’anaviy elementlar hisobiga boyitish;**

¹ Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at T:2009, 184-b

- 3.** Xalq an'analari asosida o'ziga xos zamonaviy milliy madaniyat shakllarini bunyod qilish;
- 4.** Kelajakda xizmat qiladigan, istiqboli, yangi milliy madaniy durdonalarning yaratilishi uchun sharoitlar hozirlash.

O'zbekiston xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayram va marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarini, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday an'ana va marosimlarda mamlakatimiz xalqlarining milliy ruhiyati, ma'naviyatining qadimiy ildizlari ham namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan an'ana va marosimlarda Vatanga sadoqat, yoshi kattalarga hurmat, ota-onaga, yetimlarga, qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini, ayollar sha'nini ehtiyyotlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yod etish kabi ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan qadriyatlar mujassamlashgan.

Har bir jamiyatda kishilarning muayyan urf-odat va marosimlari shakllanib borar ekan, ular muayyan g'oyalar, qarashlar, axloq normalarini ham ifodalaydi. An'analar urf-odatlar va marosimlar shaklida namoyon bo'ladi. Urf-odat nisbatan o'xhash, ma'lum darajada takrorlanib turadigan holatlarda muayyan xatti-harakatlarning aynan takrorlanishi, unga so'zsiz amal qilinishini bildiradi. Urf-odat va marosimlar barqaror bo'lishiga qaramay, yangi davr, yangi tuzum ehtiyojlariga muvofiq o'zgarib ham boradi. An'analarning o'zgarib borishi tarixiy taraqqiyot darajasiga bog'liq ekan, demak, ular nisbatan uzoq davom etadigan, shuningdek, nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan murakkab ziddiyatli ijtimoiy jarayondir.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga ma'naviy boylik sifatida o'tib kelayotgan an'anaviy dam olish usullari mavjud. An'anaviy dam olishning bir necha xillarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Jumladan, ko'ngil yozish tadbirlari. Bu tadbirlarda asosan mehnat faoliyatidan keyingi insonning ham jismoniy, ham ruhiy charchog'ini chiqarish maqsad qilib

qo‘yiladi. Bularga: choyxo‘rlik, oshxo‘rlik, xarifona (xarfana, xalfana), sayr, sayil – dala sayli, tog‘ sayli, bog‘ sayli, gul sayli, suv sayli, do‘srlar davrasи, suhbat va shu kabilar kiradi. Bunday tadbirdarda inson ko‘ngli yozilib, charchoqlarini ma’lum darajada unutadi, kayfiyati ko‘tariladi. Ma’rifiy-hordiqiy tadbirdar sirasiga kiritiladigan turkum dam olish madaniyatida asosan ma’rifiy jihatga e’tibor qaratiladi. Bunda maxsus bilim, tajriba, mushohada kabi aqLiy jarayonlar bilan bog‘liq xususiyatlar talab etiladi. Bo‘s sh vaqtida hayot, yashash uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, tajribalarni dostonxonlik, ertakxonlik, lofchilik, topishmoqtoparchilik, maqolbilarlik, mushoira, bahribayt, munozara, aytishuv, masalchilik, kitobxonlik, g‘azalxonlik, ruboiyxonlik, qasidaxonlik, chistonxonlik va shu kabi ma’rifiy tadbirdar orqali olish mumkin.

Bo‘s sh vaqtida sevimli ijodiy mashg‘ulot bilan shug‘ullanish an’analari ham mavjud. O‘zbek xalq an’anaviy ijodiy dam olish turlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1.Og‘zaki ijod – baxshi-shoirlik, askiyachilik, ertakchilik, lofchilik kabilar.

2.Musiqa - qo‘shiq - musiqa ijro qilish, terma, qo‘shiq, Alla, yalla, laparlar ijro etish.

3. Teatr-tomoshaviy ijod – masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, afsungarlik va hokazo.

4. Amaliy san’at – tikish, to‘qish, kashtachilik, kulolchilik, misgarlik, o‘ymakorlik va shu kabilar.

Bayram-marosim hordig‘i. Hayotdagi muhim hodisalar sanalarini nishonlash jarayonida dam olish. Bayram-marosim hordiqlarini ham o‘z navbatida quyidagicha tasnif qilamiz:

1. Tabiat bilan bog‘liq mavsumiy bayram-marosimlar – «Navro‘z», «Sumalak bazmi», «Boychechak», «Lola sayli», «Qizil gul sayli», «Tut sayli», «Suv sayli», «Qovun sayli», «Anor sayli», «Uzum sayli», «Birinchi qor» va boshqalar.

2. Inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar – «Suyunchi», «Ismlash», «Beshik to‘yi», «Ilk qAdam», «Sunnat to‘yi», «Muchal yoshi», «Nikoh to‘yi», «Payg‘ambar yoshi» va hokazo.

3. Diniy marosimlar – «Ro‘za hayiti», «Qurbon hayiti», «Mavlud» va boshqalar.

Ijtimoiy foydali dam olish an’analariga bo‘sh vaqtida odamlar uchun xayrli va foydali xizmatlar qilish – yaqin, qarindosh, ota-onas, ustozlardan xabar olish, kambag‘al, yetim, kasal, qariya, ojizlarga yordam berish, to‘y-ma’raka, hashar, xayriya ishlarida qatnashmoq, muqaddas joylarni ziyorat qilmoq kabilalar kiradi.

O‘zbek xalqining turli tabaqalari, guruhlari orasida ham o‘ziga xos dam olish an’analari bo‘lib, bolalar, qizlar, erkaklar, ayollar, yoshi ulug‘larning madaniy dam olish shakllari bir-biridan farq qiladi.

Dam olish shakllarining turi, ma’rifiy, ijodiy dam olib, hordiq chiqarish maskanlari, usullari qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning manbalari, uslublari, yo‘l-yo‘riqlari ham shunchalik ko‘p. Ularning bitta umumiy xususiyati, oliv maqsadi bor, u ham bo‘lsa dam olish orqali hordiq chiqarish bilan bir qatorda ma’naviy boyish, yoshlarga o‘rnak, namuna ko‘rsatish yo‘li bilan ularni tarbiyalash, xalqimizga munosib vorislarni voyaga yetkazish.

Ajdodlarimiz asrlar davomida:

- yosh avlodni bilimli, uquvli, ilm-ma’rifatli bo‘lishi, kasb-hunar egallashi uchun sharoitlar yaratgan;

- turli qadriyatlar, rasm-rusmlar, odatlarni amalga oshirgan;

-rang-barang harakatli, aqlni o‘stirish o‘yinlarini o‘ylab topgan, hayotga joriy etgan, bola tarbiyasida «Sog‘ tanda – sog‘lom aql» shioriga amal qilgan;

- sog‘lik, salomatlikning yoshlikdan qadriga yetish, vujud sog‘ligi, aql-tafakkur sog‘ligi, tiniqligi, turmush, oila, muhit sog‘lomligi haqida qayg‘urmoq lozim. Bunda albatta, dam olib hordiq chiqarish, ma’rifiy-ijodiy, aqliy-ruhiy charchoqlik, toliqishning oldini olishga ham alohida ahamiyat bergen.

Salomatlikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash, saqlab rivojlantirish, kamolga yetkazish bilan bog‘liq behisob udumlarimiz, odatlarimiz orasida ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarish, dam olish alohida o‘rin tutishi bejiz emas. Bular:

1. Qadim-qadimlardan ota-bobolarimiz, momo-onaxonlarimiz farzandlarining pokiza bo‘lishlariga alohida e’tibor berar ekanlar, ozodalik va dam olishga eng asosiy diqqatni qaratganlar.

Ma’rifiy-ijodiy dam oldirish orqali (uning turlari, tizimlari, usullari juda ko‘p) yoshlarda, xususan, bolalarda xushdamlik, quvnoqlik, dil-dildan kula olishlik, yaxshi kayfiyat, vaqtichog‘lik, tetiklik, bardamlik, eng asosiysi ma’naviy sog‘lomlik ruhida tarbiyalashdek omillarni qo‘llaganlar. Demak, sog‘lom, quvnoq, tetik tanda ruhiy sog‘lik bo‘lishini esdan chiqarmagan holda ish tutganlar.

2. Hazil-mutoyiba, askiya, lutf, qiziqchilik, xirgoyi, shirin so‘z, shirin muomala, chiroyli, yoqimli so‘zlarni qo‘llash, amalga oshirish orqali bolada ma’rifiy-ijodiy dam olish, hordiq chiqarishni, demak jismoniy va aqliy sog‘lom bo‘lib o‘sishni ta’milaganlar. Ma’rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarishning uddasidan chiqqa olganlar, uni to‘g‘ri, maqsadga muvofiq tashkil eta olganlarida sog‘lom avlodning yetishib chiqishi va yuksak fazilatlarga ega bo‘lishi tajribalar sinovidan o‘tgan haqiqat ekanligi barchaga ayon. Xalqimiz: «Kuling, kulish umrni uzaytiradi», «Yaxshi kayfiyat – yaxshilikka olib boradi, yomon kayfiyat yomonlikka olib boradi»,-deb bejiz aytmagan.

3. Xalqimiy ma’rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish orqali yosh avlodni turli xil asabbuzarlikdan, arzir-arzimas gap so‘zlar, mayda-chuyda ishlardan jig‘ibiyron bo‘lish, dilxunlikka berilish, ruhan ezilish kabi inson umrini qisqartiruvchi holatlarga yo‘l qo‘ymagan. Buning davosi ham ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish bo‘lgan. Bunda xalq og‘zaki ijodi namunalari, dostonlar aytish, qo‘shiqlar kuylash, ertaklar aytish, maqollar, hikmatli so‘zlar, topishmoqlar, tez aytish, bolalar folklorining xilma-xil janrlaridan foydalanish,

xalq milliy o‘yinlarini o‘ynatish, adabiyot, san’at, tarix va boshqalarni qo‘llay bilish orqali, badiiy so‘zni ishga solish, yaxshi ishlarni amalga oshirish bilan bajarilgan.

Xalqimizning odaticha, ko‘pchilikning tasdiqlashicha, kulgu shifobaxsh chashmadir. Kulgu – sog‘lik, yaxshi kayfiyat, tetiklik va bardamlik, jismoniy bardam-baquvvatlik, aqliy-ruhiy tetiklik, hayotga, kelajakka umid-orzu, yashashdan qanoat hosil qilish, totuvlik, ishonch, e’tiqod omilidir. Kulgu nafaqat sog‘lom avlod taqdirida, balki ijtimoiy faoliyatda, ma’naviy- ijodiy hordiq chiqarib dam olish, rujni tetiklashtirib, hayotga muhabbatni oshirish, yashash istagini kuchaytirishdir. Ha, kulgu, yaxshi kayfiyat oqilona tashkil etilgan ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish – har qanday odamni yashartiradi, umriga umr qo‘sadi, ishda unumni oshiradi, oila, jamiyatda yaxshi muhit yaratadi. Uning yana bir xususiyati, jahlni tushiradi, yomon kayfiyat, holat, vaziyatni yaxshilik tomon buradi. Yomon kayfiyat, jahl esa – inson umrini egovlaydi, bevaqt xazon bo‘lishiga olib keladi. Kulgu, lutf, yaxshi kayfiyatni ta’minlovchi ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam olishning ijtimoiy ahamiyati, umrimiz uzayishi, sog‘lom avlod yetkazishdagi hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan ahamiyati ham ana shunda.

4. Xalqimizda «Sayohat – tanga rohat», «Yaxshi dam mehnatga hamdam», «Bir nafaslik rohat Sulaymon taxtidan afzal», «Yaxshi dam olding – ishingga unum solding» kabi o‘nlab maqollar, iboralar, ko‘pdan-ko‘p afsona va rivoyatlar va boshqalarda dam olib, hordiq chiqarishning kishi salomatligi, ruhan tetikligi, aqliy va jismoniy kamoloti borasidagi ahamiyati teran ifodalangan.

Shunday qilib, dam olib, hordiq chiqarishning foydali tomonlari xalqona odobnomaning sahifalarida behisob. Sog‘lom avlod, komil avlod tarbiyasida dam olib, hordiq chiqarishning, ya’ni ma’rifiy-madaniy hordiqning ko‘rinishlari taxminan shunday:

1. Oilada ma'rifiy-ijodiy hordiq chiqarib dam olish. Buning usullari, tizimlari behisob.

2. Jamoa joylarida ma'rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish. Buning ham o'ziga xos yo'llari, uslublari juda ko'p.

3. Sayohatlar, turizm yo'llari bilan ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.

4. Yakka tartibda, jamoa bo'lib ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.

5. Ziyorat joylarga, qadimiy maskanlar – ko'hna shahar qoldiqlari, qal'alar, qo'rg'onlarG' qadamjolarga borib dam olib hordiq chiqarish.

6. Tabiat qo'yniga – tog'u toshlar, qir-adirlar bag'riga, soylar, ko'llar, daryolar bo'ylarida, so'lim go'shalar va boshqa joylarda ma'rifiy-ijodiy dam olish va hordiq chiqarish.

7. Madaniyat va istirohat bog'larida, hayvonot bog'larida, botanika bog'lari-yu san'at, adabiyot, tarix, etnografiya, tabiat, sport, tibbiyot, turli fanlar, kasb-hunarga oid muzeylar, ko'rgazmalar, anjumanlarda ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish va hokazo.

Aslini olganda, tabarruk zaminimiz, ona Vatanimiz, jafokash va mard xalqimizning buguni, ertasining ma'no-mazmuni, kelajagi buyuk davlatlarni, qolaversa, ota-bobolarimiz orzu qilgan va mustaqilligimizni amalga oshira boshlagan buyuk ishlarni amalda bajarish, nihoyasiga yetkazishni sog'lom avlod bajaradi, amalga oshiradi.

Sog'lom avlod esa sog'lom oilada, sog'lom ota va onadan paydo bo'ladi va rivojlanib kamol topadi. Yuqoridagi qoidalarda ta'kidlanganidek, Prezidentimiz I. A. Karimov sog'lom hayat tarzini barqaror etish yo'lidagi uchta mAqsadga intilishni eslatib o'tdi. Bular:

1. Sog'lom va oqil farzandlar tarbiyalab o'stirish, komil insonlarni voyaga yetkazish;

2. Oilasi va farzandlari uchun imorat qurish, qulay shart-sharoit yaratib berish;

3. Yaxshi niyat, orzu-umidlar bilan daraxtlar o‘tkazish.

Sog‘lom avlodning vujudga kelishi va oiladagi muhit, bu muhitni barqaror etuvchi er-xotinning sog‘-salomatligi, o‘zaro muomala-munosabatlari, ishonch-e’tiqodlari tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlari, qolaversa ijodiy-ma’rifiy dam olib hordiq chiqarishlarni to‘g‘ri tashkil qilishlari bilan bevosita bog‘liq.

Xo‘sish, sog‘lom avlodning jismoniy xislat-fazilatlari va ularni shakllantirish, tarbiyalab voyaga yetkazish, kamol toptirishda boshqa manbalar, asoslar qatorida ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarishning o‘rni, roli va ahamiyati nimalardan iborat?

Eng avvalo, sog‘lom avlodga xos xususiyatlar, belgilar, shakl-shamoyillaru talablarni sanab o‘tamiz: Sog‘lom avlod – komil avlod uchun Vatan va vatanparvarlik, do‘st-birodarlik va ahillik, mehnat va mehnatsevarlik, ilm-hunarga o‘ta mehr-muhabbat, donolik va zukkolik, yaxshi so‘z va yaxshilik qila olish, kamtarlik va xokimorlik, mardlik va botirlik, to‘g‘rilik va halollik, to‘g‘riso‘zlilik va adolatlilik, hushyorlik va sergaklik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik, saxiylik va sahovatlilik, mehmondo‘stlik va odamxushlik, odamiylik va insonparvarlik, qadr-qimmatni o‘rniga qo‘yish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatlilik, oila va ota-onaga cheksiz hurmat, e’tiqod va sadoqatlilik, odoblilik va axloqlilik, me’yorni bilish, vaqt va fursatning qadriga yetish, sabr-qanoatli bo‘lish, g‘urur, vijdon, o‘zini anglay olish, islomiy odatlarni iymone’tiqodni chuqur bilish va unga astoydil e’tiqodda bo‘lish, to‘rt unsur – olov, suv, yer, ko‘kning qadriga yetish, ijod qili shva boshqa insoniy fazilatlar, xislatlar mukammal bo‘lmog‘i lozim. Shuningdek, hayotiy va diniy qonun-qoidalar, donishmandlar hayotlari-yu a‘mollari, hikmatlaridan, xalq ijodi, adabiyot, san’at, tarix va boshqa ilm-fan sohalaridan ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lishlari ham talab etiladi. Ayni chog‘da sog‘lom avlod jisman bardam-baquvvat bo‘lishi, xalqimizning suvgaga tushsa cho‘kmas, o‘tda yonmas, o‘q-yoy olmas Alpomishlari, Barchinoylari, rustamlari, Avazxonlari-yu Hasanxonlari kabi mard-tanti, jangovar, qo‘rqmass, dovyurak, pahlavon, uddaburon

bo‘lishlari, jismoniy jihatdan chiniqqan, har qanday qiyinchiliklar, to‘sıqlar oldida dovdirab qolmaslik xususiyatlariga ega bo‘lishlari talab etiladi. Sog‘lom avlod dam olib hordiq chiqarishi, turizm va sayohatlarda faol qatnashgan, ularni qadrlay oladigan va ulardan unumli foydalaniб, o‘zida mujassamlashtira oladigan kishilar bo‘lishi davr talabi, hayot taqazosi.

Yuqorida sanab o‘tilgan ijobiy xislat-fazilatlar bir kishida jamuljam bo‘la oladimi? Buning uchun ota-onas, qavm-qarindosh, qo‘ni-qo‘shni-yu mahalla-ko‘y, muhit sog‘lom bo‘lishi ham taqazo etiladi.

II BOB Madaniy merosni o‘zlashtirishda madaniyat muassasalarining roli

2.1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda madaniy merosni tiklash va rivojlantirishga doir islohotlarning amalga oshirilishi

Xalqimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, mamlakat o‘tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma’naviy qadriyatlar va an’analarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Davlatimiz rahbarining «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» kitobida ta’riflanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch - ma’naviyatga eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tibor qaratildi. Mustabid tuzum davrida millatimiz va xalqimizni kamsituvchi buzib ko‘rsatilgan tarixiy haqiqatlar tiklandi. Milliy bayramlar va urf-odatlar asl holiga qaytdi. Aziz avliyolarimizning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo‘q bo‘lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta’mirlandi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi milliy madaniyatimiz tarixini o‘rganish, u haqda xolisona fikr bildirish borasida katta imkoniyatlar yaratdi. Osori-atiqalarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni to‘laqonli yoritish imkoniyati tug‘ildi.

Jahon madaniyatiga o‘zining munosib hissasini qo‘sghan ajdodlarimiz tavalludlarini nishonlash mustaqillik tufayli izchil an’anaga aylandi. Istiqlol sharofati bilan hamda Prezidentimizning tashabbuslari bilan allomalarimiz tavallud sanalari nishonlandi. Jumladan, 1991 yili Alisher Navoiy; 1993 yili Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahovuddin Naqshband; 1994 yili Mirzo Ulug‘bek; 1995 yili Feruz, Najmiddin Kubro; 1996 yili Amir Temur; 1998 yili Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg‘oniy; 1999 yili Jaloliddin Manguberdi; 2000 yili Burhonuddin al-Marg‘inoniy, Kamoliddin Behzod,

Imom Abu Mansur al-Moturudiy kabi mutafakkirlarimizga bag‘ishlangan tantanalar o‘tkazildi. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining quyidagi so‘zlari yodga keladi. «Bu kabi tantanalarni o‘tkazishdan niyat va maqsadlarimiz, muqaddas qadamjolarni obod qilishimiz sabablari... eng avvalo bu ishlarni amalga oshirish zamirida savob degan oljanob tushuncha yotadi. Savob - ulug‘ insoniy fazilat, yuksak islomiy qadriyatlardan biridir. Mening komil ishonchim shuki, savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kuni qilish kerak.

Savobli amallar qilish esa xalqimizga xos azaliy xislatdir. Savobli ishlarni qilgan odamga, uning el-yurtiga, albatta Allohning rahmatlari yog‘iladi. Muqaddas Qur’oniy oyatda ta’kidlanganidek, «Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshiliqdir». Biz ezgu ishlarni qancha ko‘p qilsak, ulug‘ ajdodlarimizning izzat-ikromini joyiga qo‘ysak, ularning tabarruk nomlarini butun dunyoga tarannum etsak, Yaratganning o‘zi - bizni balo-qazolardan asraydi, bizga kuch-qudrat ato etadi, yo‘limizni ohib beradi»².

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi Qaroriga asosan, 1996 yilda Sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi tantanalari o‘tkazildi. Ushbu tadbirlar kengayib, butun jahon hamjamiyati tomonidan ham yuqori darajada o‘tkazildi.

Madaniyat, san’at, maorif, matbuot, sport sohalarida ulug‘ ajdodimizga bag‘ishlab, turli yo‘nalishdagi kitob, maqola, risolalar chop etildi, turli film va spektakllar namoyish etildi. Sport sohasida esa uloq, ko‘pkari, kurash o‘yinlari qayta tiklanib, keng miqyosda ommalashtirildi.

Mustaqillik tufayli istiqlolning dastlabki yillaridanoq ajdodlar merosini o‘rganish, xususan jadidchilik namoyondalari Munavvar qori, Ubaydulla

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. - T: O‘zbekiston, 1999. - B. 183-184.

Xo‘jaev, M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, H.H.Niyoziy, A.Qodiriy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tariddi. Ajdodlar merosini o‘rganishning ma’naviy va huquqiy asoslari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etila boshlandi. Qomusiy olim Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yilligini nishonlash o‘zligimizni, qadriyatlarimizni anglash yo‘lidagi yana bir voqeа bo‘ldi. Ulug‘ ajdodlarimiz tavalludlarini o‘tkazish bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy tajribalar vujudga keddi. Resggublikamizdagi bu tajribalardan qo‘shni mamlakatlarda ham foydalanish ko‘zga tashlandi.

Shuningdek, qadimgi ajdodlarimizning ezgu g‘oyalari, milliy davlatchilik an’analari, turmush tarzi va mentalitetini aks etgirgan «Avesto» kitobi faqat mustaqillik yillarida o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi. Prezident Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan ma’naviy merosimizni tiklash, har tomonlama o‘rganish va targ‘ib etish borasidagi keng ko‘lamli ishlar doirasida «Avesto» kitobi ham xalqimizning ma’naviy mulkiga aylantirildi. Kitobning xalqimiz va milliy davlatchiligidan tarixi, umumbashariy sivilizatsiya rivojidagi ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda, 2001 yili «Avesto» yaratilganining 2700 yilligi yurtimizda xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Shu munosabat bilan kitobning to‘liq matni o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

Istiqlol yillarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Yuzlab muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari ommaviy muassasalar sifatida vatandoshlarimizga ma’naviy-ma’rifiy xizmat ko‘rsata boshladi. Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat markazi» tashkil etildi (1994) va uning viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi bo‘limlari ishga tushirildi. Markazga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi rahbarlik qila boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagи «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar

samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi qaroriga binoan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyati va tarkibiy tuzilishi qayta ko‘rib chiqildi. Respublikamizdagi mahalla oqsoqollari va fuqarolar yig‘inlari raislarining ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha maslahatchilari tizimi shakllantirildi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish borasida yana qator ijobiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikaning barcha viloyatlari, yirik shaharlari va tumanlarida faoliyat yuritayotgan ma’naviy-ma’rifiy muassasalar ishtirokida katta xalq sayillari, hosil bayramlari, «Mustaqillik», «Navro‘z», «Mehrjon» bayramlari, «Sharq taronalari» xalqaro festivali, xonandalar, raqqosalar, eng yaxshi kasb ustalarining ko‘rik tanlovlari, «O‘zbekiston Vatanim manim», «Eng ulug‘, eng aziz», «Kelajak ovozi» va boshqa ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilmoqda.

Istiqlol yillarda birgina Toshkent shaxrida «Turkiston» saroyi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Milliy akademik teatr binosi va g‘oyat go‘zal, mahobatli koshona - O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining yangi binosi, boshqa ko‘plab inshootlar barpo etildi.

2000 yili poytaxtimizning Yunusobod tumanida qatag‘on yillarda xalqimizning minglab asl farzandlari qatl etilib, nom-nishonsiz ko‘mib tashlangan, necha yillar davomida qarovsiz qolib kelgan Bo‘zsuv kanali sohilidagi Alvastiko‘prik deb nom olgan jarlik o‘rnida «Shahidlar xotirasi hiyoboni» va keyinchalik shu nomda muzey va jamg‘arma tashkil qilindi, 2001 yildan e’tiboran 31 avgust yurtimizda Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Har yili 31 avgust tongida bu maskanda xalqimizning qadimiy urf-odatlariga ko‘ra osh tortilib, Qur‘on tilovat qilish, davlat va hukumat rahbarlari, keng jamoatchilik vakillarining bu yerga kelib, marhumlarni yod etishi, ularning ruhiga hurmat bajo keltirishi ibratli an'anaga aylandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot ishlari bilan bevosita shug‘ullanadigan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida 894 madaniyat va aholi dam olish markazlari , 87 ta muzey, jumladan 18 ta tarixiy, 25 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy, 16 ta memorial va 18 ta boshqa yo‘nalishdagi muzeylar va 60 dan ortiq madaniyat va istirohat bog‘lari hamda 37 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Madaniyat va ma’rifat maskanlari jamiyatda o‘ziga xos o‘rin tutadi, ayniqsa, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarni aholi o‘rtasida tushuntirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillikni qo‘lga kiritishimiz sharofati bilan mustabid tuzum davrida toptalib kelingan milliy urf-odat, an’ana, qadriyatlarimiz qayta tiklanib, bugungi milliy-ma’naviy taraqqiyotimizga xizmat qilmoqda. Yurtboshimiz «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida ta’kidlanganidek: «Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayoni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o‘ziga xos «inkorni inkor» qonuniyati asosida kechganini aytish lozim. Lekin biz sobiq tuzumning mafkuraviy qarashlarini umuman inkor etishning o‘zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo‘lmagan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug‘dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. Shu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an’analar, turmush tarziga orqa oldini o‘ylamasdan, yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik, bugungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etash kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligani ham unutmaslik zarur edi. Barchamizga ma’lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma’naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o‘zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o‘ylab ish yuritishni talab qiladi». Prezidentimiz ma’naviyatning milliy taraqqiyotdagi o‘rni va ahamiyati, uni o‘zlashtirish

zarurligi haqida to‘xtalib, ta’kidlaganidek: «Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi». Bu konseptual g‘oya bugungi kunda milliy ma’naviyatni rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvor tamoyillaridan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda OAV, xususan televidenie madaniyatni ommalashtirishning asosiy vositasi va manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Ammo globallashuv jarayonlari va uning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ommaviy madaniyat ekspansiyasi ta’sirida qadriyatlar tizimida sodir bo‘ladigan tub o‘zgarishlar insonda muayyan o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi, inson va jamiyat o‘z ma’naviy-axloqiy tayanchlaridan mahrum etilishi mumkin. Shu ma’noda, Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek, «... kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so‘ng jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan «Ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo‘lishi kerak... Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma’naviy tahdidlarning oldini olish, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta’siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod axlining o‘rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo‘lgan ana shunday «madaniyat» namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo‘lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g‘oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo‘lishimiz shart». Davlatimiz rahbarining ushbu fikr-mulohazalarida ommaviy

madaniyatning mazmun-moxiyati, oqibatlari hamda unga qarshi kurashishning izchil vosita va omillari aniq bayon etilgan.

Xullas, bugungi globallashuv sharoitida turli shakldagi, xususan, «ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurash, buning uchun «xalqni - xalq, millatni - millat» qilish O‘zbekiston mustaqilligini asrab-avaylash, jamiyatdagi barqarorlikni saqlashning muhim vositasidir. Yodda tutish lozimki, madaniyat, ma’naviyat odamlar ularda mujassam bo‘lgan qadriyatlarning hayotdagi ustuvorligini tan olgan va ularga amal qilib yashagandagina yashaydi. Bir-biri bilan chambarchas bog‘liq madaniyat va ma’naviyat insonning insoniyat oldidagi, xalq oldidagi, qolaversa, o‘zi oldidagi mas’uliyatidir. Shu ma’noda, madaniyatni inson xatti-harakatlari va faoliyatining ichki tamoyillariga aylangan cheklovlar tizimi sifatida talqin etish mumkin. Ezgulikka, insoniylikka zid ishni, qanday sharoitga tushgan bo‘lmasin, qilmaydigan odam haqiqiy madaniyatli inson darajasiga ko‘tariladi.

Diniy qadriyatlarning tiklanishiga oid quyidagi misollar mamlakatimizda ma’naviy hayot to‘laqonli va rang-barang kechayotganligidan dalolatdir:

2008 yil 14-15 avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida xorijlik va mahalliy ulamolar, olimlar va keng jamoatchilik ishtirokida «O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasi ravnaqiga qo‘sghan hissasi» mavzuidagi xalqaro konferensiya; 13-14 noyabr kunlari Samarqand va Buxoro shaharlarida «O‘zbekiston - islom dunyosining buyuk mutafakkirlari yurti» mavzuidagi anjuman tashkil etildi.

1993 yil sentabr oyida Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi nishonlandi.

1995 yil noyabr oyida Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi nishonlandi.

Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi munosabati bilan 1996 yil 9-12 noyabr kunlari tantanali tadbirlar o‘tkazildi. Tantanalarda cherkov tarixida ilk bor Moskva va Butun Rus Patriarxi Aleksiy II Markaziy Osiyo hududiga tashrif buyurdi.

1996 yil 17 dekabr kuni O‘zbekiston Yevangel-lyuteran jamoasi Markaziy Osiyodagi yagona lyuteran Kirxasiniig 100 yilligini nishonladi.

1998 yil oktabr oyida Imom al-Buxoriyning hijriy taqvim bo‘yicha 1225 yilligi nishonlandi.

2000 yil noyabr oyida Imom Abu Mansur al-Moturidiyning 1130 yilligi va Burxoniddin al-Marg‘inoniyning 910 yilligi nishonlandi.

2001 yil 25-26 noyabr kunlari Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining 130 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish va ilmiy konferensiya o‘tkazildi.

2002yilda Rim-katolik cherkovi katoliklikning Markaziy Osiyoda qayta tiklanganligiga 100 yil to‘lishi munosabati bilan bayram tadbirlari tashkil etdi.

2003yil 5 oktabr kuni Samarqand shahrida Arman Apostollik cherkovi qurilganligining 100 yilligiga bag‘ishlangan tantanalar o‘tkazildi.

2003 yil noyabr oyida Abduholiq G‘ijduvoniyning 900 yilligi nishonlandi.

2003yil 27 dekabr kuni O‘zbekiston musulmonlari idorasining 60 yilligi nishonlandi.

2004yil dekabr oyida Hoja Ahror Valiyning 600 yilligi nishonlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning maxsus farmonlari bilan Qurbon va Ramazon hayitlarining birinchi kunlari dam olish kunlari deb e’lon qilindi.

1992 yil 2 aprel kuni Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

2003 yil 11 avgust kuni Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom universiteti bitiruvchilarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

2003 yil 22 avgust kuni Vazirlar Mahkamasining «Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

2003 yil 17 sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Imom Buxoriy yodgorlik majmuini asrab-avaylash va yanada obodonlashtirish, alloma merosini o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni e’lon qilindi.

2004 yil 27 may kuni Vazirlar Mahkamasining «Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

2004 yil 16 iyul kuni Vazirlar Mahkamasining «Shohi Zinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi,

2006yil 28 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish masalalari bo‘yicha Jamoatchilik kengashi tuzish to‘g‘risida»gi Farmoni e’lon qilindi.

2007yil 8 iyun kuni Vazirlar Mahkamasining «Usmon Mus’hafi»ni talab darajasida saqlashni ta’minlash to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 maydagi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasining Saudiya Arabistonidagi Bosh konsulligi

tarkibida Xaj va Umra masalalari bilan shug‘ullanuvchi attashe lavozimi tashkil etildi.

2008 yil 23 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Imom Buxoriy xalqaro markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori e’lon qilindi.

2008 yil 7 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzurida muqaddas qadamjolarni saqlash va obod etish xayriya jamg‘armasini tashkil qilish to‘g‘risida»gi Qarori e’lon qilindi.

2002 yil 30 may kuni Navoiy shaxrida Rus Pravoslav cherkovining tantanali ochilish marosimi o‘tkazildi.

2007 yilda Toshkent shahrining «Hastimom» dahasida qisqa muddatda - to‘rt oy ichida o‘z ichiga «Xazrati imom» masjidi, «Baroqxon» madrasasi, «Muyi muborak» ziyoratgohi, O‘zbekiston musulmonlari idorasining yangi binosi va boshqa maskanlarni olgan yangi majmua qurib bitkazildi.

2004 yil 22-23 mart kunlari Fransiyaning Parij shahrida «O‘zbekiston va Fransiyada diniy bag‘rikenglik» va «O‘zbekiston va Fransiya xalqaro munosabatlar tizimida» mavzularida Xalqaro konferensiylar o‘tkazildi.

2004 yil 3-10 oktabr kunlari AQSh ning Vashington shahrida R.Nikson markazi tomonidan tashkil etilgan «Davlat va din, konfessiyalararo bag‘rikenglik: O‘zbekiston misolida» mavzusida konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2007 yil 31 may kuni Buyuk Britaniyaning London shahrida «Uch din forumi» xalqaro tashkiloti tomonidan tashkil etilgan «Konfessiyalararo totuvlikka erishishda O‘zbekiston tajribasi» mavzuidagi seminar uyushtirildi.

2001 yil 30 mart kuni O‘zbekiston Bibliya kitob jamiyati tomonidan amalga oshirilgan «Sulaymonning hikmatlari kitobi»ning o‘zbekcha tarjimasi taqdimot marosimi o‘tkazildi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda Qur’on (uch marta), Qadimgi Ahdning 16 kitobi va Yangi Ahd to‘laligicha o‘zbek tiliga o‘girilib, nashr etildi.

2004 yil 21 dekabr kuni O‘zbekiston musulmonlari idorasida Respublika Ko‘rlar jamiyati bilan hamkorliqda tayyorlangan Brayl yozuvidagi Qur’oni karim kitobi taqdimot marosimi o‘tkazildi. O‘zbekiston mazkur xayrli amaliyotni amalga oshirgan jahoning uchinchi mamlakati bo‘ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda 24 mingga yaqin ko‘zi ojizlar istiqomat qilmoqda. Endilikda maxsus maktab-internatlar, kutubxonalar hamda barcha istak bildirganlar mazkur Qur’ondan foydalanishlari mumkin.

Mustaqillik tufayli musiqa, madaniyat, amaliy va tasviriy san’at kabi yo‘nalishlar rivojiga katta e’tibor berildi. O‘zbekiston mashhur musiqa va teatr festivallariga, ijrochilar tanlovlari va ko‘rgazmalarga ham mezbonlik qilmoqda. Xususan, yil sayin ishtirokchilar soni ko‘payib borayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali butun jahon madaniy jamoatchiligi o‘rtasida keng shuhrat qozonmoqda.

O‘zbekiston rahbariyati aholining ko‘pmillatlilagini hisobga olib, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Davlatimiz milliy siyosatining asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etilgan.

Milliy siyosat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

— O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini

- ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi;
- Millatidan qat'i nazar fuqarolarning qonun oldida tengligi;
 - Davlat va jamiyat boshqaruving barcha bo'g'inlarida etnik o'ziga xosliklarni hisobga olish;
 - Millatchilikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasizlik;
 - Ijtimoiy va siyosiy hayotda barcha millat va elat vakillarining har tomonlama ishtirokini ta'minlash;
 - Respublikada ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiladigan partiyalar va jamoat birlashmalari tuzilishi hamda ularning faoliyati taqiqlangan.

Respublikada hozirgi paytda 27 millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin milliy madaniy markaz (MMM) faoliyat olib bormoqda.

14 MMM respublika maqomiga ega.

31 MMM koreyslar, 23 MMM ruslar, 10 MMM tojiklar, 9 MMM qozoqdar, 9 MMM tatarlar (3 tasi tatar-boshqird MMM) tomonidan tuzilgan.

Ozarbayjonlar 8, turkmanlar 7 ta MMMga ega.

Ukrainlar va qirg'izlarda 6, turklarda va Yevropa yahudiylarida 5 tadan MMM bor.

Nemislар, polyaklar va armanlar 4 tadan MMM tuzishgan.

Uyg'ular va Buxoro yahudiylari 3 tadan MMMga ega.

Beloruslar va qrim tatarlar 2 tadan MMM ga ega.

Arablar, bolgarlar, boshqirdlar, greklar, gruzinlar, litvaliklar, qoraqalpoqlar, xitoylar va dunganlar 1 tadan MMM tuzishgan.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi va MMM faollaridan 71 kishi yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Shu jumladan, 32 kishi

«Do'stlik» ordeni bilan, 2 kishi «Mehnat shuhrati» ordeni bilan, 13 kishi «Shuhrat» medali bilan mukofotlangan. 7 kishiga faxriy unvonlar, 17 kishiga O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorliqlari berilgan. Mukofotlanganlar orasida 24 millat vakillari bor.

Bugungi kunda O'zbekiston Qahramoni Vera Borisovna Pak Xorazm viloyati koreys MMM boshqaruvi a'zosidir. Respublika rus markazi raisi Svetlana Ivanovna Gerasimova esa senator, O'zbekiston Xalq o'qituvchisi.

Televidenie va radioda 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozarbayjon) ko'rsatuv va eshittirishlar olib boriladi.

Gazetalar 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jurnallar esa 8 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman) bosiladi.

O'rta va oliy ta'lif 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida amalga oshiriladi.

O'zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, boshqa joydan ko'chib kelib, o'rnashib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin Sharq va G'arbning, Shimol va Janubning, qadim o'tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni «falsafiy tafakkur beshigi», deb bekorga ta'riflamagan. Shuni ta'kidlash joizki, bizning sivilizatsiya o'ziga xos tolerant tafakkur uslubiga tayanadi. Bunday tafakkur

uslubiga bizning zaminimizda uzoq vaqt ham otashparastlik, ham buddaviylik, ham yahudiylilik, ham xristianlik, ham islom dinlari bo‘lganini misol keltirish mumkin.

Ana shunday an'analar O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlar vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-umidlari, oljanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadi.

Ushbu an'ana va tafakkur tarzining tarkibiy qismi millatlararo totuvlik g‘oyasi bo‘lib, umumbashariy qadriyat, turli xalklar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

2.2. Madaniy-ma'rifiy muassasalar orqali madaniy merosni o'zlashtirish imkoniyatlari.

“Ma’naviyat va ma’rifat, tarix, me’morchilik, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko’plab chop etish, ayniqsa, madaniy meros bilan birga yangilanayotgan jamiyatimizning mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o’rganish muhimdir”.³

Islom Karimov

Buyuk donishmandlar bashorat qilgan ekanki: “Xalqning baxt kaliti uning boshida bo’lib turgan dono, odil podshohi qo’lida-yu, Olloh tomonidan yuborilgan ilohiy kitobida” deb. Biz o’zbeklar “O’ta baxtli xalq” deb tan olingan buyuk ajdodlar vorislarimiz. Ota-bobolarimiz boshi ustida Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Qurbonjon Dodhoy-u To’maris soyabon bo’lib, haq-u haqiqat yo’lini ko’rsatib, ushbu yo’l orqali uzoq tarixiy o’tmishni bosib o’tib, shu kunga yetib kelgan bo’lsalar ne ajab?!

Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik to’ylari nishonlandi. Tarixiy nishonlash 2 kunda, birin-ketin o’tkazilib, xalq ko’ngli shod etildi. Buxoro viloyatida ham bu katta tarixiy voqeani nishonlash uchun juda ko’p ishlar amalga oshirildi. Buxoro Shahristoni (12 kilometrlik qadimiy devor ichkarisida joylashgan) bag’rida qad ko’targan tarixiy me’moriy obidalar ta’mirlandi, konservatsiya qilindi.

O’zbekistonning hozirgi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotini barqarorlashtirish, fuqarolar totuvligi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish,

³ I.A. Karimov. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T. “Manaviyat”. 2008 y. 101-bet.

kelajak uchun iqtidorli avlodni tarbiyalash ma’naviy-ma’rifiy omilning ijtimoiy omilini, ijtimoiy rolini benihoya ravishda oshirib yubormoqda. Shuning uchun ham, O’zbekiston hukumati demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyat qurishdek murakkab vazifani ado etishda madaniy, ma’naviy sohani sog’lomlantirish bilan bog’lamoqda, milliy madaniyatning o’ziga xosligini tiklashga alohida e’tibor bermoqda.

Mustaqillik tufayli erishilgan eng katta ma’naviy yutuq – bu milliy o’z-o’zini anglash bo’ldi. Biroq, bu bilan jarayon endigina boshlandi, deyish ham xato bo’lardi. O’zligini anglash qadimiy an’analar, urf-odatlar, ajdodlar ma’naviy merosiga sodiqlik o’zbek xalqi ruhiyatida, uning ijtimoiy ongidan hech qachon begona bo’lmagan xislat, durdonadir. Rus davlati istilolari, Sovet davri istibdodi davrlarida ham millatimizning fidoyilari, jonkuyarlari milliy mustaqillikni qo’lga kiritishga, o’zligini tanishga juda katta ahamiyat berishgan.

Milliy madaniyat ravnaqi, uning durdonalaridan jamiyat a’zolarining baxramand bo’lishi, o’zligini tanish jarayonida tabiat, san’at obidalari va o’tmish yodgorliklarini saqlash, muzeylar tashkil etish, ularni qo’riqlash ishi juda katta ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga egadir. O’zbekistonda mazkur tadbirlarni amalga oshirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, madaniyat yodgorliklarini asrash, ularni o’rganishda biz tahlil etgan tarixiy davr mobaynida benihoya katta ishlar amalga oshirildi. Bular bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- 1) O’zbekistonda mavjud bo’lgan qadimiy madaniyat, tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalarni o’rganishning ma’lum tizimini shakllana boshlandi. Agar chor Rossiyasi davrida ushbu masala ma’lum rejalarsiz, pala-partish tarzda ro’y bergen bo’lsa, endi bu faoliyatda ma’lum yo’nalishlar paydo bo’la boshladi.
- 2) Tarixiy, madaniy, me’moriy yodgorliklarni o’rganish ularni ro’yxatga olishdan boshlandi. Mazkur murakkab vazifani hal etish uchun esa

maxsus ilmiy, arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ularga o'lka tarixi, arxeolog, san'atshunos olimlar, tadqiqotchilar jalb etildi. Bunday ekspeditsiyalar a'zolari tarixiy manbalarga asoslangan holda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi qadimiy madaniyat o'choqlarida jiddiy amaliy ish bilan mashg'ul bo'ladilar.

- 3) Turkiston o'lkasida muzeylar ishi yo'lga qo'yila boshlandi. O'lkadan topilgan nodir madaniyat, tarixiy yodgorliklarning katta qismi Rossianing madaniy markazlariga tashib ketilganiga qaramasdan, ushbu ishda ma'lum tizim yuzaga keldi: yodgorliklarning sun'iy yo'llar bilan xorijda chiqishga bir oz bo'lsada chek qo'yildi. O'lkada muzeylar tashkil etilishi esa mustamlaka xalqlarining qadimiy o'tmishdoshlaridan xabardor bo'lishlariga, ulardan faxrlanish hissining shakllanishi, mahalliy aholi orasida o'zligini tanishga katta imkon yaratib berdi.
- 4) Madaniy, tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalarni saqlash, ularni o'rganishda izchillik yuzaga kelib, u umumdavlat tavsifiga ega bo'la boshladi. Bunday ishning muqaddimasi sifatida Samkomstarisning tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tashkilot o'lkadagi vaziyatni qanday bo'lsa, shundayligicha izohlab, yodgorliklarni muhofaza etish va o'rganish nihoyatda nochor holda ekanligini ko'rsatib berdi.
- 5) Turkiston, O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan yodgorliklar, obidalarni saqlash, o'rganish Turkkomstaris, keyinchalik esa Sredazkomstaris, Uzkomstarislarning tashkil etilishi bilan jonlangan. Ushbu tashkilotlar mazkur vazifalarni amalga oshirishning xorijiy davlatlardagi amaliyotiga suyangan holda rang-barang shakl, uslublarda bajarardilar.
- 6) Yodgorliklarni muhofaza qilish va ularni o'rganish ishida ma'lum tuzumning vujudga kelganligi oqibatida, bu ish umumdavlat xarakteriga ega bo'la boshladi. Bular esa vayron bo'lgan tarixiy obidalarni ta'mirlash, arxeologik qazishlar olib borish, muzeylar ishini tashkil etish,

xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida davlat mablag'ini sarflashni yo'lga qo'yish imkonini berdi.

O'zbekistondagi tarixiy, madaniy yodgorliklar, me'moriy obidalarni saqlash, o'rganish borasidagi eng katta xato Sovet davlati va yakkahokim bolshevistik mafkuraning o'sha paytdagi siyosati mohiyati bilan bog'liq edi. Ayniqsa, Proletar madaniyati nazariyasi asosida qadimiy milliy qadriyatlar, chunonchi, yodgorliklar, obidalarga qarshi kurash boshlandi. Bu esa chor Rossiyasi davrida olib borilgan siyosatning yangi shakli, ko'rinishidan bo'lak narsa emas edi.

Madaniy, tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish va ularni o'rganishda mahalliy xalqning ma'naviy-ruhiy holati, madaniyat darajasi, urf-odati va an'analari hisobga olinmadi. Milliy ruhning ahamiyati "mafkuraviy bokiralik" oldida pastga urildi. Bu esa o'zbek xalqining haqqoniy qahr-g'azabini uyg'otdi.

Biz o'rganayotgan davrda ayniqsa 30-yillarda qadimiy madaniy, tarixiy yodgorliklarni o'rganish, ularni muhofaza qilish o'rniga inqilobiy yodgorliklar va "mashxur binolar", atoqli inqilobchilarga o'rnatilgan haykallarga bo'lgan munosabat ustuvor tasvirga ega bo'la boshladi, ularni ilohiylashtirish, umumxalq mulkiga aylantirish avj oldi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 10 mingdan ortiq madaniy tarixiy yodgorliklar mavjud ekanligi, yana ko'plab topilayotganini e'tiborga olib hamda ushbu jarayonga davlat g'amxo'rliги samarasini oshirish maqsadida ularni asrash, tarixini o'rganish, ta'mirlash ishi bilan maxsus shug'ullanuvchi Davlat qo'mitasini tashkil etish davri keldi, deb hisoblaymiz. O'bekiston madaniyat ishlari vazirligidagi bu ish bilan shug'ullanuvchi "Madaniyat yodgorliklarini ilmiy ishlab chiqarish bosh boshqarmasi", Respublika "Yodgorlik" jamiyati va boshqa jamoat tashkilot muassasalari ushbu vazifani to'liq bajara olmayaptilar.

O'zbekistonning nihoyatda boy tarixiy, madaniy yodgorliklari mavjud ekanligidan kelib chiqib, undan hatto turizm maqsadida foydalanishni, keladigan iqtisodiy foydani esa ta'mirlash ishlariga sarflashni yo'lga qo'yish muhimdir. Ushbu vazifani bajarish uchun esa quyidagi, favqulotda zarur tadbirlarni bajarish lozim:

- a)** mavjud tarixiy joylar, qabristonlar, hovuzlar, sardobalarning tarixini va joylashish xaritasini ishlab chiqish;
- b)** arxeologik, me'moriy yodgorliklarni asrash va ta'mirlash, noyob tarixiy va badiiy madaniyat obidalarini muzeylashtirish harakatnomasini tuzib chiqish;
- c)** mazkur ishlarni olib boruvchi, tarixiy, madaniy yodgorliklarni targ'ib qilishni tijorat bilan bo'g'lab olib borishning uddasidan chiqadigan mutaxassis hodimlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- d)** yodgorliklarni topish, ularni muhofaza etish va o'rganish bo'yicha umumxalq harakatini boshlash, uning faol ishtirokchilarini ishlab chiqish;
- e)** Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon, Toshkent kabi yirik madaniy markazlarni va tarixiy shaharlarni qayta qurish, ta'mirlashning davlat miqyosidagi loyihalarini ishlab chiqish, ularni asrash maqsadida esa muhim yodgorliklar hududlarida qo'riqxonalar va ochiq shahar elshunoslik muzeylarini tashkil etish;
- f)** yodgorliklarni ta'mirlash ustaxonalari sonini ko'paytirish va ularni ish sifatini yaxshilash va ta'mirlovchi mohir ustalar tayyorlash, ustachilik maktablari bo'yicha maxsus sinflar, litseylar ochish.

Qadimiylar yodgorliklarning paydo bo'lish tarixini ischillik bilan o'rganish, ularni targ'ib qilish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- O’zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarix instituti qoshida “Amir Temur va Temuriylar davri” bo’limini tashkil etish va ilmgohga buyuk davlat arbobi va sarkardasining nomini berish;
- Ushbu institutda “moddiy madaniyat yodgorliklarini tarixi” bo’limini ochish;
- Yodgorliklarni asrash va o’rganish borasida asarlar, monografiyalar, ilmiy, ilmiy-ommabob kitob, risolalar nashr etishni kuchaytirish, shu maqsadda Hamza nomidagi San’atshunoslik instituti rolini yanada oshirish;
- Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza etish, o’rganish ishi uchun mutaxassis xodimlar tayyorlashning Davlat ta’limiy tizimini ishlab chiqish maqsadida Movarounnahr musulmonlari diniy ishlar boshqarmasi, O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik va qo’lyozmalar institutlari bilan hamkorlikda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat instituti kutubxonashunoslik fakulteti tarkibida “Hattotlik san’ati” mutaxassislari tayyorlash ishini yo’lga qo’yish lozim.

Ma’naviy javhalarni rivojlantirishning yangi metodologiyasida madaniyat va mafkura masalalarining nisbatini aniqlash ham juda zarurdir. Gap shundaki, Sovetlar mustabid tuzumi davrida, avval aytib o’tilgandek, madaniyat komunistik mafkuraning kuchli iskanjasiga olingan bo’lib, ma’naviy jarayonlarga siyosiy maqsadlarga erishishning vositasi sifatidagina qaralar edi. Istiqlol davrida esa vaziyat o’zgardi. Hususan, Islom Karimovning “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz” nomli asarida ma’naviy sohada “milliy qadriyatlarimizni tiklash, o’zligimizni anglash milliy g’oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma’naviy hayotimizdagi o’rni va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko’tarish va ta’sirchanligini kuchaytirish”dan iborat murakkab vazifa qo’yildi.

Yuqorida mamlakat Prezidenti tomonidan bildirilgan fikrda o’z ilmiy ahamiyati nuqtai nazaridan juda muhim bo’lgan g’oya o’z ahamiyatiga ega ekanligi va har ikki ijtimoiy hodisa nisbatida madaniyatning, mafkuraviy qaraganda, keng qamrovli bo’lganligi bilan izohlanadi.

Ma’naviy va ma’rifiy sohada olib borilayotgan ishlarning natijasida aniqlash masalasi ham so’nggi paytlarda eng muhim ishlardan biridir. Albatta, ma’naviy va ma’rifiy sohada kutilishi lozim bo’lgan natijalarning natijasini aniqlash murakkab ishdir. Biroq istiqlol davrida ma’naviy va ma’rifiy faoliyat samaradorligini aniqlamasdan turib, konkret natijaga erishish ham mumkin emas. Gap shundaki, hozirgi sharoitda O’zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarda “komil inson” masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Qayd etish lozimki, “komil inson” muammosi bizga notanish ijtimoiy hodisa emas. Bu ta’limot sifatida Sharq uyg’onish davri mutafakkirlari tomonidan mukammal tarzda ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarga monand ravishda keyingi paytlarda komil inson tarbiysi masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarildi, zero ijtimoiy taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aholining texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyalarni egallashi, axloqiy pokligi, mustaqil tafakkur ma’naviy barkamolligining zaminidir.

Shu narsa ma’lumki, yoshlarda dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo’nalishda bo’lishi, diniy dunyoqarash esa respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak. Ilmiy-falsafiy dunyoqarash diniy va ilmiy ekstremizm yo’liga o’ziga xos to’siq paydo qiladi. Shu nuqtai nazardan, komil inson masalasini ilmiy falsafiy mazmunda tushunish, ta’lim tarbiya ishini esa shu asosga qurish maqsadga muvofikdir.

Ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash o’z – o’zidan bo’layotgani yo’q, albatta. U eng avvalo, mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan tarixiy extiyojlar

asosida ma'naviyat va ma'rifat soxasidagi isloxoqlar zamirida sodir bo'lmoqda. Ma'naviy soxadagi isloxoqlar doirasida quyidagi muxim ishlar amalga oshirila boshlandi. Eng muximi Vatanimizda jaxonda analogi yo'q «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi Kengashi tuzildi va unga yuklatilgan vazifalar o'lkamizda jamoatchilik diqqatini ma'naviy masalalariga qaratdi.

Ma'naviyatni rivojlantirish - davlatning bosh vazifasi deb qarash - bu soxani jiddiy taraqqiy etishiga zamin bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi (1996 y) Farmonida «Ma'naviy-ma'rifiy isloxoqlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo'naliishi, deb xisoblansin», - deb qayd qilindi.

«Ayrim katta-kichik raxbarlar... - deyiladi ushbu Farmonda, - ma'naviyatning asl ma'nosini tushunib yetmaslik tufayli, unga ikkinchi darajali ish sifatida qarashmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlariiga bo'lган bunday e'tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz royobi uchun mutlaqo ziddir». Farmondagi bu fikrlar turli darajadagi raxbarlarni xalq ma'naviyatiga jiddiy e'tibor berishga undadi.

Milliy mafkuraga bag'ishlangan (6 aprel 2000 yilgi) anjumanda Prezidentimiz raxbar, xodimlar, eng avvalo, ma'naviyat, mafkura, madaniyat bilan shug'ullanishi darkor ekanligini ta'kidladi.

Barcha darajadagi raxbarlar ma'naviyat bilan bevosita shug'ullana boshlashi - barcha joylarda keng ko'lamma ma'naviyatni jonlantirishga imkoniyat yaratmoqda. Ma'lumki, ilgari, jumladan, sho'rolar davrida ma'naviyat bilan uchinchi raxbar (yoki raxbarnig uchinchi o'rinnbosari) ideologiya ishining bir qismi sifatida shug'ullanar edi. Ko'pgina mustaqillikka erishgan davlatlarda xozir xam shunday bo'lib qolmoqda. Bizning Respublikamizda esa Prezidentimiz Farmoni asosida: «joylarda ma'naviyat bilan bog'liq ishlarning

amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyat shaxsan Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat shaxar va tuman xokimlari, respublikamizdag'i barcha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar birinchi raxbarlarining zimmasiga yuklatildi. Prezidentimiz esa barcha raxbarlarga shaxsiy namuna ko'rsatib, o'zini «ma'naviyatning bosh - xomiysi va ximoyachisi» deb e'lon qildi.

Respublikamizda azaliy qadriyatlarni tiklash boyicha o'ta jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi - ma'naviyatimiz «bino» sining qaddini ko'tarishida muxim vositalardan biri bo'lmoqda. Natijada respublikamizda yangi ma'naviyat soxasi tizimi vujudga kela boshladи.

«O'zbekkino», «O'zbeknavo», «O'zbekraqs», «O'zbeklitsey», «O'zbekteatr», Badiiy akademiya, o'zbek amaliy san'ati markazi, «ta'lim markazi» kabi ko'plab respublika tashkilotlarining tuzilishi madaniyat va ma'naviyatning asosiy soxalarini taraqqiy ettirishga ko'mak bermoqda.

Darxaqiqat, milliy qadriyatlarni tiklash borasida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarimizni qamrovi juda kengdir. Ularning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- Ko'p ming yillik tariximiz xaqqoniy, chuqur va xar tomonlama o'r ganilishi, tarixiy mavzulardagi (soviet davrida taqiqlangan) asarlarning chop etilishi milliy-tarixiy ongni shakllantirishda muxim rol oynamoqda.

- Xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro'z, Ro'za xayit, Kurbon xayit kabilar) ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, o'qituvchilar kuni, xotira va qadrlash kuni kabilar) ni joriy etilishi xalq ma'naviy xayotiga ijobjiy ta'sir etmoqda.

- Diniy qadriyalarning tiklanishi, eski masjid va madrasalarning ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda.

- Dunyo taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shgan - buyuk mutafakkirlar, davlat arboblarining ma'naviy merosidan xalqimiz faxr bilan foydalana boshladi, jumladan, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Naqshbandiy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabilarning asarlari xalqimizga ruxiy-ma'naviy quvvat bagishlamoqda. YUNESKO yordamida jaxonga munosib xissa qo'shgan allomalar (Ulugbek, Amir Temur, Al-Xorazmiy, Axmad Farg'oniy) ning yubileylarini o'tkazish odamlarda milliy faxr tuyg'ularini yuksaltirmoqda.

- Jaxonni lol qoldirgan tarixiy me'morchilik inshootlari keng qo'lama ta'mirlanmoqda, jumladan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shaxrisabz kabi shaxarlarda tarixiy-me'moriy yodgorliklar tiklanishi, Buxoro va Xiva kabi kadimiy shaxarlarning 2500 yilligi, Termiz shaxrining 2700 yilliginingyo nishonlanishi ajdodlarimiz ruxi oldida chukur xurmat tarzida namoyon bulmoqda. Uzbek tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi esa milliy gururimizni ustirmoqda. Uz navbatida jaxon tillarini o'rganish extiyoji bizni olamga «yuz tutishimiz»ga, jaxon xamjamiyatiga qo'shilishga, umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishimizga yordam bermoqda.

- Xalq ijodi, amaliy san'ati jonlanib, vatandoshlarimizni xam, xorijliklarni xam lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bu respublika va xalqaro anjumanlar o'tkazilishi, ajdodlarimiz qoldirgan meros va milliy-axloqiy madaniyat durdonasi yoshlarni tarbiyalashda muxim omil bo'lmoqda.

- Buni aloxida ta'kidlash kerakki, ajdodlarimiz merosini tiklash boyicha kilinayotgan ishlarimizni nafaqat o'zimiz, balki butun jaxon tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni o'rganish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari (chunonchi, J.Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Olmoniya, Turkiya) dan tashrif buyurgan mutaxassis-olimlar an'anaviy madaniyatimizni tiklash boyicha qilinayotgan xarakatlarimizga qoyil qolishmoqda.

An'anaviy xalq madaniyatini yaxlit va ko'p qirrali xodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muxim axamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyutsiyasi va umum qabul qilingan «madaniyat» tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy soxalarini aniqlashga intildik. Natijada, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyati tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o`yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati , xalq turmush madaniyati kabi ko'plab soxalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha soxalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga aloxida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Taxlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy - g'oyaviy mazmuni qanchalik chuqur bo'lsa, uning shakli xam shuncha baquvvat, ijtimoiy axamiyati kuchli, umri xam boqiy bo'lar ekan.

Xalq madaniyatining asosiy ko'rinishlarini aniqlash natijasida o'ziga xos xususiyatlari va tavsifiy belgilarini aniklash xam katta ilmiy qiymatga egadir.

Oddiy mexnatkash xalq ommasi madaniy - ijodiy faoliyat bilan asosan, ishdan tashqari, ya'ni bo'sh vaqtida mashg'ul bo'ladi. Endilikda xanuzgacha deyarlik o'rganilmagan an'anaviy dam olish madaniyatiga aloxida e'tibor berish lozim bo'lmoqda. Shu sababli xalq orasida mashxur bo'lgan mavsumiy dam olish an'analar («Gul sayli», «Suv sayli», «Tog' sayli», «Bog' sayli», «Gap-gashtak» kabilar) ga xamda turli tarixiy jarayonlarda madaniy - ma'rifiy xordik chiqarish maskanlari (Erkaklar uyi, Otashxona, Iydgox, Sherda Madaniy bog'lar,

Tarobxona, Tomoshagox, Saylgox, o`yingox, Choyxona kabilar) tajribasi diqqatiga sazovordir.

Xalq ijodiy an'analarini saqlash va rivojlantirish, jumladan, xalqning og'zaki, musiqali, amaliy, teatr - tamoshaviy deb atalgan asosiy ijod turlari janrlarini tiklashga oid uslublar ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda.

Xalq og'zaki ijodining askiya, doston, mushoira, lof, kulgi-xikoya, asotir (mif), afsona, ertak, latifa; an'anaviy musiqa ijodining: alla, yalla, yor-yor, alyor, terma, ashula , marosim qo'shiqlari va musiqa folklori asosida vujudga kelgan oilaviy jamoalar folklor etnografik guruxlar, xalq xavaskorlik jamoalari; xalq teatr-tomosha ijodining masxaraboz, qiziqchi, dorboz, muallaqchi, nayrangboz, qo'g'irchoqboz; xalk ommaviy - bezak ijodining naqqoshlik, kulolchilik, oymakorlik, zardo'zlik, to'qimachilik; tabiat bilan bog'lik bo'lган ijodning rang - barang tur va janrlarini taxlil qilish asosida shunday xulosaga kelindiki, ular avlodlar ongini , badiiy tafakkurini, estetik qarashlarini taraqqiy ettiribgina qolmay, balki ijtimoiy xayotning barcha soxalarida ijodkorlikni rivojlantirgan, xalqning o'z tarixi va taqdiri xaqida oylashga, bunyodkorlik qilishga undagan. Shuning uchun, ijodiy merosni tiklash va kamol toptirish xalqning barcha ijtimoiy-madaniy soxalaridagi faolligini oshirishda muxim omil bo'ladi.

Xalq pedagogikasi ming yillar davomida qaror topib, yuzlab avlodlarni tarbiyalash jarayonida vujudga kelgan ilg'or axloqiy g'oyalar, tajribalar va usullarni o'zida umumlashtirgan† Xalq pedagogikasiga oid tajribalar, an'analarini o'rghanish natijasida tarbiyaviy jarayonning samarali bo'lishiga xizmat qiluvchi «Tag maksad (tag ma'no), - podsel», salbiy tarbiyaviy jarayonni keltirib chiqaruvchi «xufiya tarbiya» - «tenovaya pedagogika» xamda katta qimmatga ega asrlar osha sinalgan «ustoz - shogird» an'analariga aloxida o'rin berish muxim ekan.

«An'anaviy xalq madaniyati» deyilganda keng ma'noda etnosning xayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa xam, uning tub ma'nodagi negizini xalq an'analarini xosil qiladi. Shuning uchn xam xalq an'analarini o'rganish o'zbek madaniyatshunosligining asosiy vazifalaridan biriga aylanmog'i lozim.

An'analar xalqning tarixiy shallanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaxo ma'naviy boyligi xisoblanadi. Etnos - millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish xar bir avlodlarnig muqaddas burchiga aylangan. An'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muxim voqeа bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar xayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan ko'zgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muxim shakli xisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, O'zbekiston raxbariyati eng avvalo, xalqimizning extiyoji, orzu - istaklarini xisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida «Navro'z», «Ro'za xayiti», «Qurban xayit» lar rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan ikki bayram «Mustaqillik kuni» va «Konstitutsiya kuni» joriy etildi. O`z navbatida O'zbekiston raxbariyati Sho'rolar davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni ta'qiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonning asosiy davlat bayramlari asosan shakllangan bo'lsa-da, azaliy bayramlarni tiklash jarayoni tugagan, deb xisoblash noto'g'ri bo'ladi. Bu borada xali bajariladigan ishlar xam kam emas. Bir tomondan, azaliy bayramlar bilan birga ularga xos odatlar va an'analar

tiklanishi darkor. Ikkinci tomondan, mustaqillik davrida paydo bo'lgan tarixiy - ma'naviy qadriyatlar bilan xam boyitilmog'i lozim.

Xalq an'analariga oid tadqiqotlarimiz, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan ma'lumotlar taxlil natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: Insonning tabiiy - xayotiy extiyojlar asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlar asrlar davomida o'z axamiyatini yo'qotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat sulolalarning maxv etilishi, xukmdorlar, istilochilarning kelib ketishlari, xattoki xududdagi axoli tarkibi o'zgarishlari xam ta'sir etmaydi. Ikkinci turkum bayram marosimlar esa ma'lum vaqtdan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishi asos bo'lishi mumkin. Uchinchi gurux marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki xukmdorlarning xoxish-irodasi sifatida vujudga keladi, o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng barxam topadi.

Xalq an'anaviy madaniyati borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muxim o'rinni tutadigan xalq o'yinlariga alovida to'xtalish lozim. Buning sababi kuyidagilardan iborat: birinchidan, o'yinlar - ajdodlarimizning eng qadimiylari, tarixiy qadriyati, ko'pgina madaniyati shakllari chashmasi - raqs, teatr, sport, marosimlar kabilalar aynan o'yinlar zaminida kelib chiqqan va tarixiy jarayonlarda o'yinlar ajdod - avlodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan; ikkinchidan: ota-bobolarimiz xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruxan tetik, jismonan baquvvat bo'lib kelgan; uchinchidan, o'yinlar nafaqat ma'naviy meros bo'lib qolmasdan zamondoshlarimizni, ayniksa, yoshlarimizni aqliy, ruxiy va jismoniy barkamol bo'lishida o'ta muxim o'rinni tutadigan manbadir.

O'yinlar -eng qadimiylari madaniyat shakllaridan biri. Ular ko'pgina san'at turlari (raqs, teatr), marosim, sport kabilalarning sarchashmasidir. Biz shunga alovida e'tibor berib, Forish noxiyasida 1985 yildan boshlab unutilgan xalq

o`yinlarini o`rganish (1985-86 yil) tiklash (1987-91 yil), va targ`ib qilish (1991-93 yil) boyicha tajribalar olib bordik. Buning natijasida, 100 ga yaqin o`yinlar tiklandi. Mazkur tajriba natijalari an'anaga aylanib, xar yili o'tkazilib kelinayotgan «Xalq o`yinlari» bayramlari olimpiadasi, qator filmlar va ommaviy axborot vositalarida, tadqiqotlarda o`z aksini topdi. Tajriba asosida xalq o`yinlarini tiklash va rivojlantirish yo'llari belgilandi.

Respublikamizda xalq o`yinlarining tiklanishida xam aynan Jizzax viloyati Forish tumanini tajribasi diqqatga sazovor bo'ldi. Bu yerga avvaliga bir maktab, qishloq, keyin tuman, so'ngra viloyat va nixoyat, respublika darajasida tiklangan xalq o`yinlari boyicha musobaqalar uyushtirildi. Forishda 1994-96 yillarda Respublika I-II Olimpiadalari o'tkazilishi o'lkamizning turli joylarida azaliy xalq o`yinlariga bo'lган qiziqishni kuchaytirib yubordi.

Shu narsani quvonch bilan qayd etish kerakki, o`yinni jon dildan sevadigan yoshlarimiz ajdodlarimizning o`yinlariga katta qiziqish bilan qarashmoqda. Forishda o'tkazilgan olimpiada musobaqalarining ishtirokchilari asosan, o'spirin-yoshlardan tashkil topdi. Bu esa XX asr o'rtalarda unutilgan an'analarini asr oxirida tiklanib, yoshlar tomonidan o'tkazilganidan dalolat beradi.

Xalq o`yinlarini tiklash jarayonida xam o`ziga xos muammolar yo'q emas. Masalan, azaliy musobaqalarning sportga yaqin turlariga ko'p e'tibor berilmoxda. Birok o`yinlarning xarakatli tomoniga e'tiborni kuchaytirib, urg'u berib, ruxiy tomoni unutilib qoyilmoqda. Xolbuki Sharq o`yinlarida odigi o'rinda ruxiyat, keyin jismoniyat turgan. Ajdodlarimiz foydalangan so'z o`yinlar, aqli o`yinlar, raqsli o`yinlar, syujetli teatrlashtirilgan o`yinlar xam diqqat talab qilmoqda. Xalqimizda insonni xar tomonlama barkamol qiladigan an'analar, o`yinlar, musobaqalar yaratilgan, ulardan nafaqat saralab, balki an'anaviy o`yinlar tizimidan yaxlit shaklda foydalanmok xam kerak.

Madaniy merosimizning bir qismi bo'lgan, avlod - ajdodlarimizga asrlar mobaynida rux jon va sog'lik ato etib kelgan xalq o`yinlarini jonlantirish - milliy qiyofamiz, ma'naviyatimiz va qadriyatimizning muxim qismini tiklash demakdir. Ularni ko'z qorachigidek asrash, e'zozlash va ulardan oqilona foydlana olish muqaddas ish ekanligini unutmasligimiz kerak. Ana shunday qila olsak o'zimizning xam, kelajak avlodlarimizning xam, xalq iborasi bilan aytganda «jonu tani omon bo'ladi».

An'anaviy xalq madaniyati va uning asosiy ko'rinishlari (xalq donishmandligi, e'tiqodi, pedagogikasi, an'analari, ijodi, dam olish madaniyati, o`yinlari kabilar) insoniyatning tarixiy extiyojlari asosida vujudga kelib, xalk xayotida o'zining munosib o'rnini topgan, avloddan - avlodga meros bo'lib o'tgan, takomillashib, ijtimoiy taraqqiyotda muxim o'rin tutgan. Ular xozirgi zamonda xam jamiyatni ma'naviy kamol toptirish uchun muxim omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ajdodlarimizning bu bebaxo merosini yanada chuqurroq o'rganishimiz, tiklashimiz va kamol toptirishimiz uchun aql, kuch va g'ayratimizni ayamasligimiz lozim.

Malumki, o'zbeklar jahondagi eng qadimgi madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, sayqal berilgan moddiy va manaviy madaniyat durdonalarining ildizlari juda olis zamonlarga borib taqaladi. Badiiy salohiyati g'oyat yuksakligi tufayli, juda qadim zamonlardanoq xalq og'zaki badiiy ijodiyotining beباho namunalarini yaratgan xalqimiz nafaqat O'rta Osiyo, balki Sharq xalqlari madaniyati rivojida muhim rol oynagan folklore an'analari hamda marosimiy qadryatlarning ham ijodkori hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'z ota-bobolari tomonidan yaratilganbebaho milliy folklor an'analarni o'z badiiy tafakkuri mahsuli bilan boyitib, yanada rivojlantirgani uchun ham o'zbek xalqining milliy an'analari avloddan-avlodga o'tib takomillashib kelmoqda. Zero, ajdodlarimiz badiiy tafakkurining sarchashmaga monand qadim ildizlari shu qadar olis zamonlarga borib taqaladiki,

ming yillar davomida xalq diliga jo bo'lib, so'zga chechan ijrochilar tilidan tushmay, boyib, to'lishib kelgan folklore asarlari milliy qadriyatlarimiz sarchashmasi sanaladi. Bu tafakkur mo'jizalari xalqimiz ma'naviyatini shakllantirish va muttasil rivojlantirib kelganligi uchun ham qadrlidir. Manaviyat esa, yurtboshimiz takidlaganlaridek, „o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishiga suyanadigan qudratli kuch” hisoblanadi.

Ma'lumki, urf –odat, rasm-rusum va marosimlar xalqi jodiyotining qadimiyligi qatlamini tashkil etadi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan marosim folklori janrlarida inson tug'ilishidan tortib, uning butun hayoti davomida o'tkaziladigan turlituman udumlar, marosimlar, irim-sirim va rasm-rusumlar, aytim va olqishlar o'z ifodasini topgan.

Ayniqsa, o'zbek toyları xilma-xil rasm- rusumlar va folklor matriallariga boyligi, xalq maishiy hayotida alohida o'rın tutishi bilan ajralib turadi. Toyga ma'naviy oziqlanish uchun yor-do'stlar yig'iladi, chunki toy marosimi tarkibidagi har bir udum va qo'shiqning boy hayotiy mazmuni bor. Marosim qo'shiqlarining g'oyaviy yo'naliishida xalqimizning milliy mentaliteti mujassamlashgan. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari esa, o'zida milliy ruhiyatni keng ko'lamda badiiy aks ettirgan. Shuning uchun ham, marosimlarda ijro etiladigan har bir aytim, olqish va qo'shiqlar tinglovchi ruhiyatiga kuchli ta'sir etib, unda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiqodni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Milliy-manaviy qadryatlarni tiklash bosh masala bo'lib turgan bugungi kunda yosh avlodni ma'naviyati yuksak, har tomonlama mukammal inson sifatida tarbiyalashda marosim qo'shiqlaridan keng ko'lamda foydalanish yaxshi samara beradi. Ota-bobolarimizdan bizga qoldirilgan bu udum, urf-odat, rasm-rusum, marosim folklori va an'analarni asrab avaylab, uni bugungi zamondoshlarimiz badiiy estetik qarashlari bilan O'zliksiz ravishda ijodiy boyitib boorish yosh avlod tarbiyasining yetakchi omillaridan biridir. Zero yoshlar tafakkuri, dunyoqarashini

milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik borasidagi faolligini oshirish kelajagi buyuk bo'lgan O'zbekiston poydevorini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlardan biri hisoblanadi. Bunyodkorlik qon-joniga singib ketgan xalqimizning ulkan yaratuvchilik salohiyati tufayli bunyod etilgan betakror tarixiy yodgorliklar qadimdan butun jahon ahlini o'ziga maftun etib kelganligi bejiz emas. Chunki so'lim diyor sarhadlarida o'zining bog'-rog'larga burkangan poyonsiz o'lkasiday bag'ri keng, sahovatli kishilar tomonidan asrlar davomida xalq og'zaki badiiy ijodiyotining eng go'zal namunalari yaratilgan bo'lib, o'zbek xalqining betakror samimiyatini o'zida ifoda etuvchi urf-odat va marosimlar qadimiy madaniyatimizning go'zalligini namoyish etuvchi ajoyib bir ko'zgudir.

Har bir ijtimoiy tuzum o'zi uchun qulay madaniyat tizimini yaratadi. Sho'rolar davrida kommunistik mafkuraga xizmat qiladigan yagona markazlashtirilgan madaniyat tizimi yaratilib, unga kommunistik partiya rahbarlik qilar edi. Sho'rolarga madaniyat asosan kommunistik g'oyalarni tarqib qilish, o'z hokimiyatini mustakamlash uchun kerak edi. Kommunistlar mamlakatda o'ziga xizmat qiladigan va mavqeini mustahkamlaydigan sotsialistik madaniyatni rivojlantirish uchun mablag'ini ayamasdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va olam shumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- qadimiy tariximizning xaqqoniy, chuqur va har tomonlama o'rganilishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asarlarning chop etilishi xalqimiz milliy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol oynamoqda;
- sho'rolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar: tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh diniy e'tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o'yinlar, tarixiy me'morchilik san'ati, ko'pgina an'anaviy ijod turlari tiklandi; xalq odatlari, marosimlari va bayramlar (Mustaqillik bayrami,

O'qituvchilar kuni, xotira qadrlash kuni kabilar)ning joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlanmoqda.

- diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarining ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda;

- o'zbek tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi dilni quvontirmoqda. O'z navbatida, jahon tillarini o'rganish ehtiyoji bizni olamga "yO'z tutishimiz"ga, jahon hamjamiyatiga qushilishga, umuminsoniy qadriyatlarni yanada kengroq o'zlashtirishimizga yordam bermoqda;

- xalq. ijodi, milliy amaliy san'atimiz jonlanib rivoj topib, vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodi boyicha respublika va xalqaro anjumanlarning o'tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy ahloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lmoqda. Bu borada

O'tkazilayotgan rang-barang tadbirlar, jumladan, xalk. hunarmandchiligi va tasviriy san'at ko'rige, oilaviy ansambllar va lapar ijrochilar tanlovlari, "Alla" ijrochilarining ko'rige, folklor-etnografik ansambllari festivali, dorbozlar, an'anaviy sirk san'ati, qo'g'irchoq teatri jamoalarining ko'rik-tomoshalari, qadimiy qo'shiklar, urf-odatlar va marosimlar namoyishlari kabi boshqa ko'plab anjumanlar vatanimizda xalqimizning boy ijodiy merosiga katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. Jumladan, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashi, "Ta'lim markazi", "O'zbekkino", "O'zbeknovo", "O'zbekraqs", "O'zbekmuzey", "O'zbekteatr", Badiiy akademiya, Milliy madaniy markazlar kabi ko'plab madaniy-ma'rifiy tashkilotlarning tuzilishi respublika ma'naviyati asosiy sohalarining ravnaq topishiga zamin bo'ldi.

Mustaqillik yillarda o'tkazilayotgan "Yangi avlod", "Kelajak ovozi", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "Yangi nomlar" va boshqa ko'rik-tanlovlarni har birining

yo'nalishi, o'ziga hos maqsad va vazifalari bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 7 aprel PK.-1091-son "Yagonasan, mukaddas Vatan" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risida"gi qarori mamlakatimiz madaniyat va san'at,hususan, yoshlar ijodi ravnaqida muhim hodisa bo'ldi. Bu ko'rik-tanlovnинг bosh maqsadi: millatimiz, xalqimiz, eng avvalo, ertangi kunimizning ishonchi bo'lган yoshlarimiz qalbida o'z ona Vataniga bo'lган mehr va muhabbat, sadoqat tuygularini uyg'otish, Vatanni sharaflaydigan, ulug'laydigan, qadr-qimmati, sha'ni, shavkatini ifodalaydigan mazmunan teran qo'shiklar yaratish, shu bilan birga yoshlar orasidan iste'dod sohiblarini izlab topish va kashf etishdir. Shu bois, ushbu ko'rik-tanlovni o'tkazib kelinayotgan barcha tanlovlarning umumlashmasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek madaniyatining xalqaro nufuzi osha boshladi. Eng avvalo, ajdodlarimiz merosini tiklash boyicha qilinayotgan keng ko'lamlı ishlarimizni jahon qamjamiyati tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni o'ganish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari, chunonchi, Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Olmoniya, Turkiya kabilardan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar ham amalga oshirilayotgan ishlarga tahsin aytmoqdalar. O'zbek san'ati jahonga tanilmoqda, ko'plab folklor jamoalari jumladan, Toshkentning "Kamalak", Andijonning "Sumalak", Xorazmning "Meros" kabi folklor-etnografik ansamblari xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurib, xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodir san'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o'zbek xalq madaniyati va ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. O'zbek xalq ertaklari, maqollari, iboralari, afsonalari Xitoyda, Eronda, Turkiyada, Olmoniyada, Amerikada nashr etilgani quvonchli holdir. Vatanimizda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish borasida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilganligini butun jahon tan olmoqda. Shuni bemalol aytishimiz mumkinki, mustaqil O'zbekiston madaniyatining yangi mustahkam poydevori yaratildi. Xullas, mustaqillik sharofati bilan xalq ijodining rang-barang turlarining tiklanishi - xalqimizning tarixiy ongi, milliy ma'naviyatini shakllantirish va ravnaq toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida hayotning boshqa jabhalari kabi madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar – isloh otlar amalga oshirila boshlandi.

Ma'lumki, O'zbekistonda islohotlar mamlakat Prezidenti Islom Karimov tomonidan taklif etilgan beshta tamoyil boyicha amalga oshirilmoqda. Madaniyat sohasida ham bosh islohotchi - bu davlat.

O'zbekiston hukumati madaniyat va ma'naviyat sohasidagi isloqotlarni ustuvor yo'naliш deb hisoblab, bu boradagi ishlarga jiddiy e'tibor bermoqda. O'zbekiston xalqliing maqsadi - kuchli davlat asosida kuchli jamiyat qurish. Bundan kelib chiqib, mamlakatimiz madaniyat sohasidagi isloxotlarning ham asosiy yo'nalishi madaniyat va san'at muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, ularni nodavlat va jamiyat tashkilotlariga aylantirish, jamiyat va inson manfaati asosida xizmat qiluvchi yangi jamiyatlar, uyushmalar, markazlar va jamg'armalar tuzishdan iborat. O'zbekistan madaniyat tashkilotlari va muassasalari tizimida ikki yo'nalish paydo bo'lmoqda:

1. Davlat tashkilot va muassasalari

2. Nodavlat va jamoat tashkilotlari

Davlat tasarrufidagi tashkilotlar:

a) Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi tashkilotlar;

b) davlat aksionerlik jamiyatlar, kompaniyalar, birlashmalar: "O'zbekkino" milliy agentligi, "O'zteleradio" kompaniyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "O`zbeknovo" estrada birlashmasi,

"O'zbekteatr" IIB, "O'zbekraqs", "Musavvir" ilmiy ijodiy ishlab chiqarish birlashmalari, "O'zbekmuzey" birlashmasi, "O'zbekturizm" aksionerlik kompaniyasi va boshqalar.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari:

a) jamg'armalar;

b) ijodiy tashkilotlar, jamiyatlar va uyushmalar;

v) madaniy-ma'rifiy markazlar.

O'zbekistonda quyidagi jamg'armalar mavjud:

Imom al-Buxoriy nomidagi xalqaro hayriya jamg`armasi, Amir Temur nomidagi xalqaro xayriya jamg`armasi, Ibn Sino nomidagi xalqaro jamqarma, "Oltin meros" xalqaro jamgarmasi, Bobur nomidagi xalqaro jamg`arma, Sodiqov nomidagi xalqaro jamg`arma, "Soqlom avlod uchun" xayriya jamg`armasi, Bolalar jamg`armasi, "Iste'dod" jamg`armasi, "Ekosan" xalqaro ekologiya va salomatlik jamg`armasi, O'zbekiston ommaviy-axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg`armasi, O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg`armasi, "Mahalla" jamg`armasi va boshqalar. Ijodiy tashkilotlar, jamiyat va uyushmalar: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston me'morlar uyushmasi, O'zbekiston milliy faylasuflar jamiyati, O'zbekiston tarixchilar jamiyati, O'zbekiston "Tasviriy o'yina" ijodiy uyushmasi, O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi va boshqalar.

Madaniy-ma'rifiy markazlar: Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, O'zbekiston ijtimoiy falsafa milliy tiklanish markazi, Milliy-madaniy markazlar (Rus, Ukrain, qozoq, koreys kabi) va xalqaro aloqalar jamiyatlari.

O'zbekiston madaniyati tizimidagi tashkilotlar hozirgi davrda:

- a) tarkibiy o'zgarishlar qilishmoqda, muhim tashkiliy ishlarni hal etishmoqda, ish mazmuni va shaklini yangilashmoqda;
- b) jiddiy izlanishlar olib borishmoqda, jahon tajribasini o'rganishmoqda va tajribalar orttirishmoqda;
- v) yangi sharoitda moddiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishmoqda;

Davlat tasarrufidagi ishlarga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari vazirligi bosh-qosh bo'lmoqda va ulkan ishlarni amalga oshirishmoqda.

Davlat tizimida yangidan tuzilgan ko'pgina tashkilotlar, Masalan, "O'zbekteleradio" kompaniyasi, "O'zbekkino", O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "O'zbeknavo", "O'zbekteatr", "O'zbekturizm" kabilar samarali faoliyat ko'rsatishmoqda. Yangi tuzilgan jamg'armalar orasida Amir Temur nomidan xalqaro xayriya jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun" xayriya jamg'armasi, "Kamolot" yoshlar jamg'armasi ijobiy natijalarga erishmoqda. Ijodiy tashkilotlar orasida esa yozuvchilar, bastakorlar, me'morlar uyushmalarining faoliyati diqqatga sazovor. Markazlar ichida O'zbekiston baynalminal markazi, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, huquqiy madaniyat markazi va boshqa markazlar ibratli ishlarni qilishmoqda.

Madaniyat tizimidagi muammolar. Jamiyatimiz madaniyat va ma'rifat "bino"sinи baquvvat va go'zal bo'lishi uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirishimiz lozim bo'ladi. Bu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham talaygina.

Ularning ba'zilariga to'xtalamiz:

1. Respublika va viloyatlar darajasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa xam, ba'zi joylarda, jumladan, tuman, jamoa xo'jaliklarida jiddiy e'tibor berish lozim bo'lgan ishlar mavjud. Ko'pgina tuman rahbarlari hanO'zgacha madaniyat sohasiga yetarlicha e'tibor berishmayapti;
2. O'zbekiston hududlarining mushtarakligini ta'minlashda madaniyat va san'atning o'rni katta. Bu borada "Viloyatlar kuni", ya'ni viloyatlarda bir-birining kunlarini o'tkazish yaxshi samara beradi. Bunday tadbirlarni tumanlararo ham o'tkazish mumkin;
3. Xozirgi davrda yoshlar ma'naviyatiga alohida e'tibor berish lozim. Yoshlar ongida va ma'naviy hayotida bo'shliqning paydo bo'lishida mahalliy madaniyat muassasalarining talab darajasida ishlamayotganligi sabab bo'lmoqda. Klublar, madaniyat uylari, kutubxonalar, istirohat bog'lari mahalliy aholi va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va ularni g'oyaviy, ma'naviy kamol topishiga samarali xizmat qilishi kerak.

Madaniyat tizimining moddiy negizini yaxshilash muxim muammolarning biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali qator muammolar ham mavjud:

- a) madaniyat sohasida tuzilgan yangi (davlat, jamoa va nodavlat) tashkilotlariga hukumatimiz katta mablag'lar ajratgan. Ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turilibdi. Ularga mablag'ini ko'paytirish maqsadida tijorat ishlarini olib borishga ruhsat berilgan. Ularnig ko'pi besh yilgacha soliqdan ozod etilgan. Biroq, ular ishni yo'lga qoyish uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanish o'rniga bu tashkilotlarning rahbarlari o'zлari uchun qulayliklar yaratish bilan ovvora. Shuningdek, madaniyat tizimi o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash ishlarini ham yaxshi yo'lga qoyishi zarur;
- b) Madaniyat va san'at industriyasini yo'lga qoymasdan turib, bu sohani yo'lga qoyib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kino industriyasi (ssenariy yaratish, kino olish, uni tarqib qilish, ijara ishlarini amalga oshirish), musiqa industriyasi (musiqa asarlarini yaratish va uni ijro qilish, ovoz yozib olish va uni tarqatish), tasviriy san'at industriyasi (tasviriy durdonalar yaratish va uni targ'ib qilish, ko'rgazma savdolar, auksionlar uyushtirish) kabilarni yo'lga qoyish zarur.
- v) madaniyat tizimi faoliyatini yaxshilash uchun unga, albatta, faol qiziquvchi, tashabbuskor va faol ijodkorlarni jalg etish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina joylarda hamma madaniyat sohasida ishlayverishi mumkin, degan tushuncha bor. Bunday tushuncha bilan madaniyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Madaniyat jonkuyar, tashabbuskor tashkilotchilar bilan tirik. Ularsiz madaniyat tizimi ishlay olmaydi va inqirozga uchraydi.

XULOSA

Mustaqillik tufayli istiqlolning dastlabki yillaridanoq ajdodlar merosini o‘rganish, xususan jadidchilik namoyondalari Munavvar qori, Ubaydulla Xo‘jaev, M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, H.H.Niyoziy, A.Qodiriy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ajdodlar merosini o‘rganishning ma’naviy va huquqiy asoslari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etila boshlandi. Istiqlol yillarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Yuzlab muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari ommaviy muassasalar sifatida vatandoshlarimizga ma’naviy-ma’rifiy xizmat ko‘rsata boshladi.

Respublikaning barcha viloyatlari, yirik shaharlari va tumanlarida faoliyat yuritayotgan ma’naviy-ma’rifiy muassasalar ishtirokida katta xalq sayillari, hosil bayramlari, «Mustaqillik», «Navro‘z», «Mehrjon» bayramlari, «Sharq taronalari» xalqaro festivali, xonandalar, raqqosalar, eng yaxshi kasb ustalarining ko‘rik tanlovlari, «O‘zbekiston Vatanim manim», «Eng ulug‘, eng aziz», «Kelajak ovozi» va boshqa ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot ishlari bilan bevosita shug‘ullanadigan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida 894 madaniyat va aholi dam olish markazlari , 87 ta muzey, jumladan 18 ta tarixiy, 25 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy, 16 ta memorial va 18 ta boshqa yo‘nalishdagi tuzlar va 60 dan ortiq madaniyat va istirohat bog‘lari hamda 37 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Madaniyat va ma’rifat maskanlari jamiyatda o‘ziga xos o‘rin tutadi, ayniqsa, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarni aholi o‘rtasida tushuntirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xullas, bugungi globallashuv sharoitida turli shakldagi, xususan, «ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurash, buning uchun «xalqni - xalq, millatni - millat» qilish O‘zbekiston mustaqilligini asrab-avaylash, jamiyatdagi barqarorlikni saqlashning muhim vositasidir. Yodda tutish lozimki, madaniyat, ma’naviyat odamlar ularda mujassam bo‘lgan qadriyatlarning hayotdagi ustuvorligini tan olgan va ularga amal qilib yashagandagina yashaydi. Bir-biri bilan chambarchas bog‘liq madaniyat va ma’naviyat insonning insoniyat oldidagi, xalq oldidagi, qolaversa, o‘zi oldidagi mas’uliyatidir. Shu ma’noda, madaniyatni inson xatti-harakatlari va faoliyatining ichki tamoyillariga aylangan cheklovlar tizimi sifatida talqin etish mumkin. Ezgulikka, insoniylikka zid ishni, qanday sharoitga tushgan bo‘lmasin, qilmaydigan odam haqiqiy madaniyatli inson darajasiga ko‘tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. – T.: O’zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O’zbekiston kelajagi buyuk davlat. – T.: O’zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istqibolining asosiy tamoyillari. – T.: O’zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O’zbekiston, 1996. – 1 jild.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: O’zbekiston, 1996. – 2 jild.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqiyot yo’lida. – T.: O’zbekiston, 1998. – 6 jild.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. – T.: O’zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T.: O’zbekiston, 2002. – 10 jild.
9. Karimov I.A. O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari. – T.: O’zbekiston, 2002.
10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo’l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo’li. – T.: O’zbekiston, 2003. – 11 jild.
11. Karimov I.A. Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo’lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. – T.: O’zbekiston, 2004.
12. Karimov I. A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. – T.: O’zbekiston, 2007.
13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar. – T.: O’zbekiston, 2009.
15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir. Xalq so’zi. – 2005. – 29 yanvar.
16. Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan kurib bo’lmaydi. Xalq so’zi. – 2005. – 17 fevral.
17. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo’shma yig’ilishida so’zlagan nutqi. - T., 2010, noyabr.
18. O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida qonun. “O’zbekiston ovozi” gazetasi, 1992
19. O’zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami., 1995 yil, 4-son, 15-modda.
20. O’zbek xalq poetik ijodi. T., 1990.
21. Sarimsoqov B. O’zbek marosim folklori. T., “Fan”, 1990.
22. Boynazarov F. O’rta Osiyoning antik davri. T., “O’qituvchi”, 1991
23. Istoriya i kultura narodov Sredney Azii. M., 1991
24. O’zbekiston tarixi va madaniyati. T., “O’zbekiston”, 1992.
25. Mavrushev A. Ma’naviy sog’lomlashtirish davri. T., “O’zbekiston”, 1992
Ibn Arabshoh Amir Temur tarixi. T., “Mehnat”, 1992
26. Iskandarov B. O’rta Osiyo falsafiy va ijtimoiy –siyosiy fikrining shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavxalar. T., “O’zbekiston”, 1993
27. Mo’minov I. Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli. T., “Fan”, 1993
28. Qilichev T. Ko’hna qal’alar diyori. T., “O’qituvchi”, 1993.

30. Yo'ldoshev J. O'zbekiston Respublikasi ta'lif taraqqiyoti yo'lida. T., "O'qituvchi", 1994
31. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T., "O'qituvchi", 1994
32. Qosimov B. Istiqlol fidoyilari . Maslakdoshlar. T., "Sharq" , 1994
33. Bekmurodov M. Movarounnaxrda jamoatchilik fikri tarixi. T., "Fan", 1994
34. Mirolimov Sh. Mahalla mehri.T. "Navro'z", 1994.
35. Jalilov Sh. Mahalla yangilanish davrida. T., "Mehnat", 1995.
36. Nizomiddin Shomiy Zafarnoma T., "O'zbekiston", 1996
37. Soatov B., Xusanov A. Ibtidoiy va qadimgi sharq madaniyati. 1996.
38. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.T., "O'qituvchi", 1996
39. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi.T., "O'qituvchi", 1997
40. Vatan tuyg'usi T. T., 1997
41. Tyurikov V., Shog'ulomov R. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi: Unutilmas voqealar va sanalar (1991-1996).- T., "O'zbekiston"
42. Imomazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., "Sharq", 1998
43. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi.T. "O'zbekiston", 1999
44. Ergashev Y. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi. T., 1999
45. G'oziev E.G'., Azizova Sh.V. Tashkiliy psixologiya T. "Universitet", 1999
46. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T. "Sharq", 2000
47. Ziyomuxamedov B. Ma'naviyat asoslari.T., 2000
48. Xolmetova M. Ommaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi.
T., "O'zbekiston", 2000
49. Saidqosimov S., Axmedov A., Axmedov B. va boshq. Amir Temur jahon tarixida. T. "Sharq", 2001
50. Istiqlol va ta'lif. T. "Sharq", 2001.
51. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T., "Sharq", 2001.

52. Bekmurodov M. Tashkilot madaniyati va rahbar ma'naviyati.T.2001
53. Axmedova Z., Gabidulin R. Kultrologiya. T. 2001
54. Qoraboev U. O'zbek xalki bayramlari. T. "Sharq". 2002
55. Otamurodov S. Ma'naviyat asoslari.T.,2002.
56. Bekmurodov M.,Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati.T., "Adolat",2003.
- 57.Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. T."Sharq", 2005
58. Bekmurodov M.Shukronalik va hayotga pozitiv yondoshuv.T., Format poligraf

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.philosophy.ru.
3. www.history.ru.
4. www.gov.uz - Hukumat sayti.
5. www.press-service.uz - Prezident sayti.
6. www.ziyo.edu.uz - Vazirlilik sayti.
7. www.ziyonet.uz – O`quvchi-talabalar uchun sayt
8. www.ziyouz.uz – O`quvchi-talabalar uchun sayt